



VATANPARVAR

MILLIY VAZIRLIKNI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

2024-yil 8-mart, №10 (3072)



- 4 MALAKA SINOVDAN O'TKAZILDI
- 5 VATAN SHUNDAY MARDLARGA SUYANADI
- 11 OTA-ONASI VA USTOZLARI DUOSINI OLGAN QIZ
- 12-13 GO'RO'G'LINING QIRQ YIGITI KEZGAN DUNYO
- 18 "PARIJ – 2024" SARI ODIMLAR



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

YANGI O'ZBEKISTONDA BUTUN XALQIMIZ QATORI XOTIN-QIZLARIMIZ UCHUN HAM MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH — ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO'LIB QOLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

Assalomu alaykum, hayotimiz quvonchi, fayz-u farishtasi bo'lgan muhtarama onaxonlar, hurmatli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday tantanali anjumanda uchrashib, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollarini Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan qutlash men uchun ulkan sharaf va saodatdir.

Barcha-barchangizga samimiy mehrim va cheksiz hurmatimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

O'zlarinigiz kabi go'zal bayramingiz muborak bo'lsin!

Muhtaram vatandoshlar!

Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siyosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero inson qadrini ulug'lash, avvalo, aziz-u mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi.

Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin, degan so'zlarini biz eng ezgu da'vat sifatida qabul qilamiz.

Biz hayotimizning ma'no-mazmuni, butun borlig'imizni siz, qadrlil opa-singillarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz. Sizlar biz uchun hamisha vaqt kuch-g'ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag'ishlab kelayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.

Hurmatli opa-singillar!

Yurtimizda mehnatkash, oliyanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, o'z farovon hayot barpo etish davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdiqi inu birgina misol, ya'ni Saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafardan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi mustahkamlab qo'yilganida yaqqol ko'rish mumkin.

Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko'rib turganimdan xursandman. Mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarimizning adolatli va ta'sirchan bo'lishida ularning ham albatta hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo'lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz.

Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e'tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko'rsatayotgani barchamizni quvontiradi. Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta'kidlash lozim.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalari 13 trillion so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayol kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Eng asosiysi,

400 mingdan ortiq opa-singillarimiz ish bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so'mlik ipoteka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oila o'z uyiga ega bo'ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang'ich badalini to'lash uchun 200 milliard so'm subsidiya ajratilganini qayd etish lozim. Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'tgan yilning o'zida "Ayollar daftari" bo'yicha 1 trillion 234 milliard so'm hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi. Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining ishtiroki kuchayib borayotgani ayniqsa muhimdir. Ular tomonidan "xonadonbay" o'rganishlar natijasida ijtimoiy yordamga muhtoj 690 mingdan ziyod oilaga manzilli yordam ko'rsatilgani, 116 mingta notinch oilada muhit sog'lomlashtirilganini bugun alohida e'tirof etamiz.

Qadrlil do'stlar!

Mamlakatimizda bo'lg'usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabani yarmidan ko'pi - e'tibor bering, yarmidan ko'pi, ya'ni 653 ming nafardan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu - jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani.

Joriy o'quv yilida ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliygohlarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-onaga qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy byudjetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliygohlarining magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari byudjetdan to'lanmoqda.

Eng muhimi, qizlarimiz o'rtasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya'ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan.

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta'lim, xususan oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayol fan doktori (DSc) va o'z sohalarini bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko'rish mumkin. Birgina 2023-yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mamnun etadi.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasi jami 5 mingga yaqin olim ayollarimiz faoliyat ko'rsatmoqda. Oliygoohlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalishida ish olib bormoqda.

Bu raqamlar nimadan dalolat beradi? Bu avvalo, qizlarimiz, opa-singillarimizning intellektual salohiyati naqadar balandligidan, agar tegishli sharoit va imkoniyat yaratib bersak, ular har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirligidan dalolat beradi.

Albatta, oila yumushlari, farzand tarbiyasi bilan birga, turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilayotgan opa-singillarimizning mehnatini munosib qadrlash doimo davlatimiz e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida 17 nafar hurmatli ayollarimiz "O'zbekiston Qahramoni" degan oliy unvonga sazovor bo'lgan bo'lsa, ularning

7 nafari fan, ta'lim va san'at sohasi vakillari ekanini alohida ta'kidlash lozim. 11 nafar ayol fan sohasiidagi eng yuksak darajaga, ya'ni akademik unvoniga sazovor bo'lgani, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlanib kelayotgani el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasidir.

Aziz vatandoshlar!

Hammamizga ma'lumki, bugun dunyoda murakkab va og'ir vaziyat, iqtisodiy inqiroz hukm surmoqda. Tabiiyki, bu holat mamlakatimizga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ijtimoiy sohalar uchun byudjetdan mablag' ajratish albatta oson bo'layotgani yo'q. Lekin, qanchalik qiyin bo'lmasin, biz qo'shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, xotin-qizlarimizning o'z salohiyatini ro'yogba chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdami va bu ishlarimiz albatta davom etadi. Chunki ayollarning, xususan qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Opa-singillarimiz salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xalqimiz genofondini mustahkamlash inson qadrini ulug'lashning o'zak masalasidir. Shu maqsadda 2023-yili 6 million 500 ming nafardan ziyod ayol tibbiy tekshiruvdan o'tkazilib, ularga zarur maslahat va amaliy yordam ko'rsatildi.

Bu kabi ezgu ishlarimizning davomi sifatida Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili davlat dasturi doirasida xotin-qizlarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularning bandligini ta'minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish vazifalari alohida belgilab qo'yildi. Bu borada mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko'tarish, ularning bandligiga ko'maklashish maqsadida, Senat Raisi T. Norboyeva boshchiligida maxsus komissiya tashkil etiladi. Ushbu komissiya kelgusi yil 8-martga qadar har bir hududda "favqulodda holat" rejimida ishlab, xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha ishlarini mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qiladi.

Mazkur komissiyada "Xalq banki" raisining o'rinbosari G. Rashidova xotin-qizlarning biznes g'oyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bo'ladi. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi, "Biznesni rivojlantirish banki" va "Mikrokreditbank"da ham ayollar tadbirkorligiga ko'maklashish bo'yicha alohida rais o'rinbosarlari ish boshlaydi. Ana shu rahbarlar har bir viloyat, har bir tuman, har bir mahallada yangi biznes g'oyalari ega xotin-qizlarni aniqlash, ularning tashabbuslarini ro'yogba chiqarish, loyihalarini sifatli ishlab chiqish va amalga oshirishga har tomonlama ko'mak beradilar.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari, hokimlarning xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari hamda faol ayollar komissiyasi bilan birgalikda joriy yilda 9 ming 442 ta mahalladagi 580 ming nafarga yaqin ishsiz ayolning bandligini ta'minlash uchun mas'ul etib belgilanadi. Bu borada mahallalarda oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning kamida 40 foizi ayollar taklif etgan loyihalarga yo'naltiriladi. Shu maqsadda har bir hududda xotin-qizlar uchun hunarmandchilik, tadbirkorlik markazlari va klasterlari tashkil etiladi. Ushbu maskanlarda 205 ming nafar opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga tayyorlanadi hamda tadbirkorlik asoslariga o'rgatiladi.

Shuningdek, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 8 ming nafar xotin-qizga o'z biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratiladi. 50 ming nafar yosh ayol uchun malakali mutaxassislar ishtirokida "Biznes marafon" loyihasi tashkil etiladi. Ushbu loyiha doirasida yuzlab qobiliyatli qizlarimizga

o'z biznesini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy yordam beriladi.

Umuman, bir oy muddatda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha alohida dastur qabul qilinib, loyihalarni amalga oshirish uchun 15 trillion so'm, jumladan oilaviy tadbirkorlik loyihalariga 6 trillion so'm ajratiladi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyadagi elchilarimiz ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 100 million dollarlik grantlarni jalb qiladi.

Sog'liqni saqlash sohasi ham bir qator muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, murakkab jarrohlik operatsiyasi o'tkazishga muhtoj 2 ming nafar xotin-qiz davlat byudjeti va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan davolanadi. Shu bilan birga, 1 million nafar homilador ayol hamda 1 million 500 ming nafar emizikli ona yod preparati, qariyb 6 million nafar reproduktiv yoshdagi ayol temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlanadi.

Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 4 ming nafar xotin-qizga uy-joy ajratiladi. Shu toifadagi 3 ming nafar ayol uchun murakkab tibbiy operatsiyalar bepul o'tkaziladi.

Yurtimizda "Qizlar akademiyasi" platformasi yaratilib, 100 ming nafar opa-singillarimizga moliyaviy, huquqiy, psixologik, reproduktiv bilim berish yo'lga qo'yiladi. Bunday amaliy ishlarimiz ro'yxatini yana davom ettirish mumkin.

Qadrlil anjuman ishtirokchilari!

Yaqinda O'zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etilganidan xabaringiz bor. Bu esa aholining, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz muammolarini hal etish bo'yicha yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ayniqsa, "Mahalla yettilligi" tarkibidagi xotin-qizlar faollaridan biz katta natijalarni kutib qolamiz. Opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, muammolariga yechim topish, kerak bo'lsa, oilaviy masalalarda ayollarimizning yaqin sirdoshiga aylanish ular uchun birinchi darajali vazifa bo'lishi lozim.

Dunyoda o'xshashi bo'lmagan bunday tizimni joriy etishdan maqsad ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini quyi bo'g'indan boshlab samarali himoya qilish ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish yo'lida tashlangan yangi bir amaliy qadam, desak, to'g'ri bo'ladi.

Aziz yurtdoshlar!

Vatanni sevhish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, el-yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalash bu dunyodagi eng ulug' va sharafli ishdur. Mehribon va oqila, jonkuyar ayollarimiz borada hamisha fidoyilik ko'rsatib kelmoqdalar.

Ma'lumki, har yili aholimiz soni qariyb 900 ming nafarga ko'paymoqda. Joriy o'quv yilida 733 ming nafar farzandlarimiz birinchi sinfga qadam qo'ydi. Ertaga hayotimizga qudratli to'lqin bo'lib kirib keladigan ana shunday navqiron avlodimiz timsolida biz Yangi O'zbekiston bunyodkorlarini ko'ramiz.

Shu bois o'g'il-qizlarimizni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida voyaga yetkazish barchamizning asosiy burchimizga aylanishi zarur.

Bugungi tahlikali zamonda jahon miqyosida kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, hayotga yengil-yelpi, iste'molchilik kayfiyati bilan qarash kabi xatarlardan yoshlarimizni himoya qilish o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha ayollarga murojaat qilmoqchiman.

Aziz opa-singillar, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborni kuchaytiraylik, bog'cha, maktab va oliygohlarga kirib boraylik.

O'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, farzand va nabiralarning o'qishi, davomati masalasi, axloq-odobi bilan qiziqaylik.

Men g'olib!

Bolalarimizni bilimli va aqlli, oqni qoradan ajrata oladigan, el-yurtimizga sodiq, hayoli va iboli, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalash uchun barchamiz birgalikda harakat qilaylik.

Biz ma'naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz kerak. **"Ezgulik - shiorimiz, ma'rifat - qurolimiz"** degan g'oya asosida bu jarayonni avvalo, oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim.

Zotan, hadisi sharifda aytilganidek, **"Ota-ona o'z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirolmaydi"**.

Muhtarama opa-singillarimiz, duogo'y onaxonlarimizning mas'uliyati - aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Chindan ham, jondan aziz bolalarimiz hamma havas qiladigan ta'lim va tarbiya olsa, bilasizlarmi, jamiyatimiz, hayotimiz qanday o'zgaradi?

Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu vazifani ado etishda biz avvalo siz, azizlarga ishonamiz va tayanamiz.

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha to'plangan milliy tajriba xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Jahon bankingning kuni kecha e'lon qilingan indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi **eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida** qayd etildi.

"Ayollar, biznes va qonun" deb nomlangan ushbu yillik hisobotda dunyoning 190 ta davlatidagi holat 10 ta ko'rsatkich bo'yicha baholab boriladi. Yangi indeksda mamlakatimizda mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilgan. O'zbekiston bu borada yaxshi natijaga erishgani e'tirof etilgan.

O'tgan yili Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan nufuzli xalqaro xotin-qizlar forumlarida ham mustaqil tahlilchi va ekspertlar tomonidan ayni shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Bulaming barchasi albatta biz birgalikda qo'lga kiritgan katta yutuq bo'lib, bu ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim.

Joriy yilda mamlakatimiz yana bir yirik anjuman - **Osiyo xotin-qizlar forumiga** mezbonlik qiladi. Mazkur anjuman "Birlashgan Millatlar Tashkiloti - Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Bu forum gender siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish bo'yicha samarali muloqot maydoni bo'ladi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning hurmatli elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini ham samimiy qutlaymiz. Ularning mamlakatlari va xalqlariga chin dildan tinchlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Hurmatli do'stlar!

Xabaringiz bor, har yili 8-mart ayyomida turli sohalardagi dastlabki yutuqlari uchun buyuk o'zbek shoirasi - Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan iste'dodli qizlarimizni muborakbod etamiz.

Bugungi bayram tabirimiz ana shu qizlarimiz, ularning ota-onalari, ustozlari uchun, o'ylaymanki, unutilmas tarixiy voqea bo'lib qoladi.

Siz, aziz farzandlarimizni yuksak mukofot bilan o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy tabriklayman. Bunday ulkan e'tirofni kelajakda katta-katta yutuqlar bilan albatta oqlaysizlar, deb ishonaman.

Ayni vaqtda bugungi bayram arafasida mehnat va jamoatchilik faoliyatida muhim natijalarga erishgan, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan hurmatli ayollarimizdan katta bir guruhi davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlandilar.

Barchamiz ularni chin qalbdan qutlab, kelgusi ishlariga yangi muvaffaqiyat va omlar tilaymiz.

Muhtarama opa-singillar!

Siz, azizlarni bugungi bahor va nafosat bayrami bilan yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sihat-salamatlik, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, fayz-u baraka tilayman.

Har biringizga hamisha oilangiz, farzand-u nabiralaringiz, el-yurtimiz ardog'ida bo'lish nasib etsin!

Katta rahmat sizlarga!



XALQARO "JAMOA RUHI": O'zbekiston harbiylari tengsiz

Pokiston Islom Respublikasi Qurolli Kuchlari 22-armiya korpusining Terrorizmga qarshi kurashish milliy o'quv markazida Quruqlikdagi qo'shinlar bo'linmalari ishtirokidagi "Jamoa ruhi" VII xalqaro musobaqasi bo'lib o'tdi.



Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan va umumiy hisobda 60 soatlik mashg'ulotlarni o'zida jamlagan mazkur musobaqa 2018-yildan buyon xalqaro darajada Pokiston Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlari tomonidan o'tkazib kelinadi.

Musobaqaning 2024-yildagi navbatdagi bosqichida 23 ta jamoa ishtirok etdi. Pokiston, Bahrayn, Iordaniya, Qozg'iston, Saudiya Arabistoni, Maldiv, Marokash, Qatar, Shri-Lanka, Tailand, Turkiya, AQSh va O'zbekiston jamoalari asosiy ishtirokchi sifatida bo'lsa, Ozarbayjon, Belarus, Xitoy, Myanma, Germaniya, Indoneziya, Yaponiya va O'mon vakillari harbiy kuzatuvchi maqomida qatnashdi.

Musobaqa shartlariga ko'ra, jamoalar bir necha kilometrgacha bo'lgan marshrutning belgilangan nuqtalari bo'yicha harakatlanib, maxsus-taktik, otish, tibbiy, aloqa, muhandislik tayyorgarliklari,

harbiy topografiyadan turli maxsus mashqlarni bajardi. Shuningdek, tunda oriyentirlash, suvli to'siqlardan o'tish, dushman ortiga yashirinib harakatlanish, artilleriya olovini yo'naltirish, pistirman tashkillashtirish va pistirmadan chiqish, minalashtirilgan maydondan o'tish, aviahalokatga uchragan vertolyot ekipajiga birinchi yordam ko'rsatish, vertolyotdan arqon yordamida tushish, radiatsion, kimyoviy va bakteriologik himoyalash kabi bellashuvlarda bahs olib bordi.

Musobaqa davomida har bir jamoa umumiy hisobda 90 km.dan (60 soat vaqt ichida) iborat masofani bosib o'tdi. Harakat davomida turli ko'rinishdagi 20-25 marotaba kutilmagan test (harbiy topografiya, taktik, maxsus-taktik, otish, aloqa tayyorgarliklari, artilleriya olovini to'g'rilash, suv to'sig'idan o'tish va boshqalar) sinovi bajarildi.

Shuni alohida aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi qur'a tashlash

yuqurish) vazifasini to'liq anjom-aslahalar bilan 35 daqiqada bajarib, musobaqa rekordini o'rnatdi.

Musobaqa hakamlari va tashkilotchilari tomonidan O'zbekiston terma jamoasining joyda oriyentirlash va marsh yurish bo'yicha rekord natija ko'rsatgani hamda shaxsiy tarkibning yuqori jismoniy, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi alohida ta'kidlandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2-o'rin AQSh va 3-o'rin Saudiya Arabistoni jamoasiga nasib etdi.

Tantanali taqdirlash marosimida oliy o'rinni egallagan jamoamiz sharafiga O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi ijro etildi.

Ta'kidlash joizki, mazkur musobaqada 2021-yilda o'z ishtirokini boshlagan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi 2021-, 2022- va 2023-yillarda ham faxrli birinchi o'rin sohibi bo'lgan edi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida muzaffar o'g'lonlarimiz tantanali tarzda kutib olindi. Unda Mudofaa vazirligi mas'ullari, harbiy xizmatchilar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Yurtimiz bayrog'ini baland ko'targan, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari sharafiga munosib himoya qilgan jamoamiz vakillariga chuqur minnatdorlik bildirilib, o'zbekona to'nlar kiydirildi.

**Mudofaa vazirligi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti**



MALAKA SINOVDAN O‘TKAZILDI



Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugda batalyon, divizion komandirlari va ularning o‘rinbosarlari komandirlik tayyorgarligi dasturi yakunlari bo‘yicha sinovlarda ishtirok etdi.

Bir necha kun davom etgan sinovlarda nafaqat bo‘linma komandirlari va o‘rinbosarlarining kasbiy malakasi va bilim darajasi, komandirlik qobiliyatini aniqlash, balki ularga dunyo tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy jangovar operatsiyalarni olib borish, qo‘shinlarni har xil vaziyatda boshqarish va qo‘yilgan o‘quv-jangovar vazifalarni sifatli bajarish bo‘yicha ma‘lumotlar berildi.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda dunyo miqyosida olib borilayotgan zamonaviy jang va harbiy mojarolarning tahlili bo‘linma komandirlaridan kuchli jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega bo‘lishni, kasbiga mas‘uliyat va sadoqat bilan yondashishni, ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni talab etmoqda.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi tashabbusi bilan Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida hamda “Nukus” umumqo‘shin poligonida tashkil etilgan sinovlar o‘quv-uslubiy yig‘in sifatida o‘tkazildi.

Bo‘linmalarning jangovar tayyorgarligi va shayligini yuqori bosqichga ko‘tarish, komandirlarning shaxsiy mas‘uliyati, kasbiy mahorati, bilim va ko‘nikmalarini yuksaltirish, oldiga qo‘yilgan o‘quv-jangovar vazifalarni sifatli bajarishga, bo‘ysunuvchilarning ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga o‘rgatish maqsadida o‘tkazilgan yig‘in mashg‘ulotlari sermazmun va sermahsul bo‘ldi.

Nazariy qismda ishtirokchilar bilan taktika, otish, harbiy



topografiya, tibbiy, ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalash, razvedka, aloqa, saf va axloqiy-ruhiy tayyorgarliklardan mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkillashtirish va o‘tkazishda interfaol usullar hamda multimedia va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish bo‘yicha tajribali ofitserlar ko‘magida tavsiyalar berilib, bilimlari boyitildi.

Har bir ishtirokchi bajargan me‘yorlar natijasi bo‘yicha baholab borildi. Amaliy mashg‘ulotlarda o‘q otish tayyorgarligi, jangovar va harbiy texnikalarni boshqarish hamda boshqa fanlar bo‘yicha sinovlar qabul qilindi.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ko‘rgazmali mashg‘ulot

BILIM VA KO‘NIKMA OSHIRILDI



Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi, Nukus temiryo‘l bekati, shoxobchasi va aeroporti harbiy harakatlar tarkibiy bo‘limi tomonidan Nukus garnizonida joylashgan harbiy qismlar shaxsiy tarkibi uchun “Nukus” temiryo‘l vokzalida harbiy texnika va yuklarni temiryo‘l harakatchan tarkibi, ya‘ni vagonlarga yuklash-tushirish hamda qotirish bo‘yicha amaliy-ko‘rgazmali mashg‘ulot o‘tkazildi.

Ta‘kidlash joizki, qo‘shinlarni bir joydan ikkinchi joyga temiryo‘l orqali ko‘chirishni tashkil etish ularning tezkorligi va jangovar shayligini ta‘minlab, olis masofalarni yaqin qilishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu usul olis masofalarga texnikalarni kolonna bo‘lib harakatlantirish, texnikaning yurish xazirasi sarf-xarajatini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mashg‘ulotlarda harbiy texnika va yuklarni tashish jarayonida tayinlanadigan qorovul shaxsiy tarkibining majburiyatlari, turli

vaziyatlardagi harakatlari va alohida xizmat o‘tashning boshqa jihatlari namuna sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Tadbirda “O‘zbekiston temiryo‘llari” aksionerlik kompaniyasi xodimlari ishtirok etib, yo‘l hujjatlarini to‘ldirish hamda temiryo‘l stansiyalarida to‘xtash tartibi, aloqa o‘rnatish usullari haqida ma‘lumot berishdi.

Ko‘rgazmali tarzda o‘tkazilgan mashg‘ulot davomida zirhli va avtomobil texnikalarini platformalar orqali vagonlarga yuklash-tushirish, ular siljib ketishining oldini olish



maqsadida belgilangan tartibda mahkamlash, texnikalarni tashishda niqoblash va qo‘riqlovini tashkil etish kabi masalalar namoyish etildi.

Ta‘kidlash joizki, sohada olib borilayotgan yangilanishlar sabab endilikda texnika va yuklarni temiryo‘l platformalariga mahkamlash uchun oldingidek bir marotaba ishlatiladigan po‘lat simlardan emas, balki bir necha yillar xizmat qiladigan va ishlatishda anchagina qulay bo‘lgan

zanjirli qotirish mexanizmlari qo‘llanilmoqda.

Mashg‘ulotning amaliy tadbirlarini harbiy xizmatchilar shaxsan o‘zlari bajarib, bu boradagi ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldi.

**Kichik serjant
Abdullajon UMARALIYEV**
Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati



VATAN SHUNDAY MARDLARGA SUYANADI

Jangovar shaylikni oshirishda harbiy xizmatchilarning yuksak mahorati, malakasi, tajribasi hamda harb ilmi bo'yicha egallagan bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada qo'shinlarda batalyon (*divizion*)lar harbiy xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi hamda individual salohiyatini yuksaltirish, qo'shinlarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan va bugungi kunda an'anaga aylanib ulgurgan "Eng ilg'or batalyon (*divizion*)" ko'rik-tanlovining ahamiyati beqiyos bo'lmoqda.

Xalqimizda "Mardlar maydonda sinaladi" degan ibora bor. Muhimi, bu maydonda bilim, mahorat va jasorat o'z so'zini aytadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Qizg'in va murosasiz bellashuvlar o'z sohasining ustasi bo'lgan eng ilg'or harbiy xizmatchilarni aniqlab berdi, ularning mehnatini yuzaga chiqardi. Quyida ularni sizga tanishtiramiz.

Armiyada **podpolkovnik Muhridin HOSHIMOV** nomi ko'pchilikka yaxshi tanish, desak, adashmaymiz. Xalqaro armiya o'yinlari doirasida o'tkaziladigan "Tank biatlioni" musobaqasining faol ishtirokchisi bo'lgan bu harbiy xizmatchidagi g'ayrat-shijoat, uncha-muncha raqibni pisand etmaydigan kuch O'zbekiston jamoasini doim muvaffaqiyat sari yetaklaganini jamoadoshlari juda yaxshi biladi. Quvonarlisi, shu kungacha ham ilg'orlar safida e'tirof etilgan o'g'lon "Eng ilg'or batalyon (*divizion*)" ko'rik-tanlovida o'z jamoasi bilan umumqo'shin batalyonlari yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Bu musobaqada ilk marta ishtirok etdim, – deydi suhbatdoshimiz. – Raqiblarimiz kuchli edi. Shuning uchun batalyonimiz bilan bor bilimimiz, mahoratimizni ishga solib harakat qildik. Musobaqalar shiddatli kechdi. Muhimi, natija kutganimizdek bo'ldi, intilishlarimiz besamar ketmadi. Bunday musobaqalar

nafaqat harbiy xizmatchining bilimi, malakasi va mahoratini, balki u xizmat qilayotgan jamoani, harbiy qismni ham yuzaga chiqaradi. Asosiysi, inson qaysi kasbda faoliyat yuritmasin, uning sir-asrorlarini mukammal egallasa, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarsa, muvaffaqiyat har doim u tomonda bo'ladi. Aslida, musobaqada ishtirok etishga munosib bo'lish bu ulkan yutuq bo'lsa, finalga chiqishni sharaf deb bilaman. Bu sharaflarni faqat mehnat orqali oqlash kerak.

Ma'lumki, "Eng ilg'or batalyon (*divizion*)" ko'rik-tanlovi nufuzli va sharaflarni bellashuv sanaladi. Unda ishtirok etayotgan harbiy jamoalardagi shaxsiy tarkib bilimda tengsiz, mahoratda yetuk, bir so'z bilan aytganda, professional bo'lishi zarur. Ko'rik-tanlovda maxsus operatsiya kuchlari bo'linmalari yo'nalishida bahs olib borgan **podpolkovnik Dilshod SHOUMAROV**ning jamoasi shartlarni ado etishda ana shunday ustunlikni namoyon qildi va g'oliblar safidan o'rin oldi.

– Bellashuvga kirishgan jamoa borki, g'alabaga erishsam deb intilgani shubhasiz, – deydi podpolkovnik D. Shoumarov. – Bilasizmi, g'alabani siri avvalo, mehnatda, tinimsiz izlanish va uyushqoqlikda. Men g'alaba uchun bor bilim va malakasini safarbar etgan, mehnatini ayamagan

jamoadoshlarimdan minnatdorman. Axir kuch birlikda, jipslikda, deb bejiz aytishmagan. Umuman olganda, erishilgan bu muvaffaqiyat hammamizni yanada olg'a undashiga ishonaman. Men bundan buyon ham yurtimiz osoyishtaligi va xalqimizning farovon turmushini asrash yo'lida fidokorona xizmat qilib, yuqori natijalarga erishishni maqsad qilganman va maqsadimga albatta yetaman! Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlamoqchiman, "Sharafli yo'lni tanlaganlar kam bo'lmaydi", deb ko'p eshitganman. Haqiqatan ham shunday. Zero harbiylarning kasbga bo'lgan mehri yurtga sadoqatini namoyish etish uchun imkon beradi. "Eng ilg'or batalyon (*divizion*)" ko'rik-tanlovi ana shu jihati bilan ham ahamiyatlidir.

Mayor Shavkat ISMATOV ham o'z kasbining professional. Izlanishni xush ko'radigan shijoatli bu harbiy xizmatchi komandirlik qilayotgan harbiy qism "Eng ilg'or batalyon (*divizion*)" ko'rik-tanlovida razvedka bo'linmalari yo'nalishida g'alabaga erishdi.

– Bu kabi tanlovlar harbiy xizmatchilarning bilimni yuksaltirishda, tajribasini oshirishda, mahoratini sayqallashda muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi mayor Sh. Ismatov. – Qo'l ostimdagi harbiy xizmatchilarning barchasi o'z kasbining mohirlari sanaladi. Hammasi bilimga chanqoq va shijoatli. Ulardagi zarur paytlarda muhim tadbirlarni qo'llay olish, yetakchilik va tashabbuskorlik qobiliyatlarini qadrlayman. Jamoamiz erishgan g'alabada ofitserlar – vzvod komandiri kapitan Sardor Shodmonov, kapitan Murodjon Do'squlov, guruh komandiri serjant Bekmurod Burhonov, yo'riqchi-serjant G'olibjon Qosimov, kichik serjant Olim Yo'lbarsov kabi fidoyi va vatanparvar harbiylarning bemisl hissasi bor. Bilasizmi, men nimadan quvonaman? Yurtimiz tinchligi va osoyishtaligiga kamarbasta

bo'lishni sharaf biladigan yurtning shunday asl o'g'lonlari safida ekanimdan cheksiz shod bo'laman. Bugun yurtimiz shahar-qishloqlari qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborgan ulkan bunyodkorlik ishlarini faxr-iftixor bilan tilga olsak, arziydi. Bu kabi ezgu ishlarining qay biriga to'xtalishni bilmay, aql shoshadi. Ha, bularning barchasi mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik tufayli. Tinchlik atalmish ushbu bebaho ne'mat garovi professional asosdagi qudratli milliy armiyamizdir. U o'zida millatimizning qadim va shonli qadriyatlarini, an'analarini jo qilgan tom ma'nodagi xalq armiyasi sanaladi. Men mana shu shonli armiya saflarida xizmat qilayotganimdan faxrlanaman va Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilaman!

Mayor Akbar TURDIYEV ham muzaffar o'g'lonlarimizdan biri. Uning divizioni ko'rik-tanlovning artilleriya divizionlari yo'nalishida 1-o'rinni zabt etdi.

Suhbat davomida bildikki, qahramonimiz 2022-yilda ham mazkur musobaqada ishtirok etgan va g'olib bo'lgan. Faqat unda Sharqiy harbiy okrug nomidan qatnashgan bo'lsa, bu safar Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'mondonligi sharaflini himoya qildi.

– 2011-yilda oliy harbiy ta'lim muassasasini tamomlaganman, – deydi u. – O'tgan yillar mobaynida turli hududlarda xizmat qildim. To'g'ri, 13 yil unchalik katta muddat emasdir. Lekin bu yillar harbiy xizmatchi sifatida men uchun qadrlidi. Negaki tanlagan soham bo'yicha malakaga ega bo'ldim, tajribam ortdi. Ustozlardan bilmaganimni o'rgandim, bilganlarimni yanada takomillashtirishga harakat qildim. Intilishlarim, izlanishlarim bu gal ham meni g'alaba bilan siyladi. Bundan xursandman. Tanlov davomida artilleriyadan otish va o't ochishni boshqarish, taktik (*taktik-maxsus, maxsus*) tayyorgarlik, o't ochish pozitsiyalarini egallash va ularni tark etish bo'yicha yuqori natijaga erishdik. Zamonaviy urushlardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, bular eng qiyin shartlar sanaladi. U harbiy xizmatchidan yuksak malaka va tajriba talab qiladi. Bu borada divizionimiz harbiy xizmatchilari bilan faxrlansak, arziydi. Negaki ularning bilim va malakasi, uyushqoqligi, hamjihatligi, asosiysi, g'alabaga bo'lgan ishonchi va intilishi sabab g'olib jamoalar safidan joy oldik. Shu o'rinda batareya komandirlari – mayor Jafar Alimov, katta leytenantlar – Shahboz G'aybullayev, Parvizxon Akmalov, seksiya komandirlari – kichik serjant Yashnarbek To'raboyev, to'p komandiri kichik serjant Furqat Nosirjonovning xizmatini alohida e'tirof etaman.

Podpolkovnik Gulnora XODJAMURATOVA

ASKARLIKNI

SHARAF BILAR HAR O'G'OLON

Milliy armiyamiz saflariga har tomonlama yetuk o'g'lonlarni saralash va tayyorlab berishda, yoshlarimiz ong-u tafakkuriga armiya, harbiy hayot haqidagi tushunchalarni singdirishda mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yuksak mas'uliyat sabab bo'lg'usi askarlarni har tomonlama o'rganish, ularning intellektual salohiyati, jismoniy yetukligi va salomatligini mukammal ravishda sinovdan o'tkazishda mazkur tashkilotlarning o'rni va roli muhim.



Muallif suratga olgan

Mirzo Ulug'bek tumani mudofaa ishlari bo'limida mana shunday chaqiruvoldi tayyorgarlik jarayonida bevosita ishtirok etdik.

– Saralash jarayonida yigitlarning salomatligi, jismoniy tayyorgarligi va intellektual salohiyatiga katta e'tibor qaratiladi. Har tomonlama sinovdan o'tgan, munosib o'g'lonlarga Vatan himoyasiga yo'l oladi, – deydi Mirzo Ulug'bek tumani mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i podpolkovnik Dilmurod Shokarimov. – Quvonarlisi, chaqiruv jarayoni yildan yilga takomillashib bormoqda. Endilikda bu mas'uliyatli ishga keng jamoatchilik va o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari ham jalb qilinmoqda. Ular chaqiruv jarayoni boshlangunga qadar mahallalarda bo'lib, chaqiriluvchilarning oilaviy sharoiti, jamoat ishlaridagi faolligi, qiziqishlari va qobiliyati, harbiy xizmatga bo'lgan xohish-istagi, odob-axloqini o'rganib chiqishadi.

Bu borada bizga "Mahalla", "Nuroni" jamg'armalari, Yoshlar ittifoqi tuman kengashi, tuman ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi vakillari, mahalla faollari, shuningdek umumta'lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va jismoniy tarbiya fanlari o'qituvchilari yaqindan yordam bermoqda. Butlash

komissiyasi tomonidan ijobiy xulosa olgan yigitlarga muddatli harbiy xizmatga yo'l oladi. Maqsadimiz istiqlolimiz va tinchligimizning metin qo'rg'oni bo'lgan Qurolli Kuchlarimizga har tomonlama munosib yoshlarni saralab berishdir.

Chaqiruvoldi ishlarining asosiy qismini tibbiy ko'rik tashkil etishini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham hozirda qaysi mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlarida, yig'in punktlarida bo'lmang, tibbiy komissiya a'zolariga barcha shart-sharoitlar yaratilib, xonalar zarur zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanganiga va ushbu jarayonga malakali mutaxassislarining jalb etilganiga guvoh bo'lasiz.

– Ko'p yillardan buyon chaqiruv jarayonida ishtirok etib kelyapman, – deydi Mirzo Ulug'bek tumani butlash va hududiy komissiyasi katta shifokori Oydin Karimova. – Bugun yigitlarimizda muddatli harbiy xizmatga bo'lgan ishtiyoq kuchli. Shuning uchun ular salomatligiga jiddiy e'tibor berishyapti. Ya'ni yigitlar muddatli harbiy xizmatga borishdan avval sog'liqlari bilan bog'liq sinovlar mavjudligini chuqur anglab yetyapti, biror kasallik bilan og'risa, uni o'z vaqtida davolashga, salomatligini asrashga intilyapti. Bu esa juda quvonarli hol. Chunki boshqalar uchun arzimasa sanalgan



ba'zi kasalliklar yigitlarning Vatan himoyachisi bo'lishdek ezgu maqsadlarini ortga surishi mumkin. Albatta, chaqiriluvchilarning salomatligini tekshirish, sinovdan o'tkazish shifokorlardan katta mas'uliyat talab etadi. Shu bois barcha tekshiruvlar ko'p yillik tajribaga ega yetuk mutaxassislar tomonidan amalga oshirilyapti.

Tibbiy ko'rikdan o'tayotgan yigitlarni suhbatga tortganimizda, ularning barchasi muddatli harbiy xizmatga borishni qat'iy maqsad qilganini ta'kidlaydi.

– Har bir er yigit kabi Vatanim tinchligi va osoyishtaligini saqlash ishiga kamarbasta bo'lsam, deyman. Shuning uchun harbiy xizmatga borish uchun astoydil

tayyorgarlik ko'rdim, – deydi askarlikka nomzodlardan biri Temur Amirov. – Tibbiy ko'rikdan va butlash komissiyasi bilan suhbatdan muvaffaqiyatli o'tdim. Bu sinovlar meni ezgu maqsadimga yo'llayotganidan xursandman. Kelajakda hayotimni harbiy soha bilan bog'lashni maqsad qilib qo'yganman. Intilish va ishtiyoq bilan albatta, bu orzumni amalga oshiraman.

Ayni vaqtda yurtimizning barcha hududlaridagi mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlarida bo'lib o'tayotgan bu kabi tadbirlar yurtimiz tinchligi, istiqlolimiz barqarorligiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

Chaqiruv – 2024



ARMIYA SAFLARIGA KUZATILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi qarori asosida joriy yilning 1-mart kunidan boshlab fuqarolarni muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirish tadbirlari boshlandi.



Joriy yilgi chaqiruvdan boshlab fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirishning soddalashtirilgan tartibini hayotga tatbiq etish maqsadida Prezidentimizning 2020-yil 6-martdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan "Fuqarolarni muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom kuchga kirdi. Unga ko'ra, chaqiriluvchilarning bir-birini takrorlaydigan tibbiy ko'rikdan o'tish uchun sarson bo'lishlari va chaqiruv mavsumi davomida harbiy xizmatga ketishi yoki qolish masalalari hal etilmasdan, oylab kutishga majbur bo'lishlariga chek qo'yildi.

Toshkent shahri va viloyati mudofaa ishlari boshqarmalari yig'in punktlarida chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga yuborish tadbirlari tantanali tarzda o'tkazildi. Unda



Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Zokirjon Sayfutdinov, mudofaa ishlari boshqarmasi shaxsiy tarkibi, nafaqadagi harbiy xizmatchilar, muddatli harbiy xizmatga yo'l olayotgan o'g'lonlar va ularning ota-onalari, do'stlari ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar yigitlik burchini sharaf bilan o'tashni ahd qilgan yurt o'g'lonlariga mustahkam sog'liq, ona Vatan himoyasida sobitlik, ularning ota-onalariga esa mard va jasur yigitlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgani uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

– Mana shu safda ko'plab er yigitlar qatorida ko'zimning oq-u qorasi – farzandim borligidan behad xursandman, – deydi askar onalari nomidan so'zga chiqqan Muhayyo Magdiyeva. – Men ham, o'g'lim ham respublikamizning istalgan nuqtasida o'z yigitlik burchini o'tashga tayyormiz. Bizning duolarimiz sizlarni asraydi, aziz bolajonlarim. Sizlar esa Vatanni asrang! Bu yurt mard yigitlariga, jasur o'g'lonlariga suyanadi. Oy borib, omon qayting!

– Biz Vatan oldidagi muqaddas burchimizni sharaf bilan ado qilish, zimmamizga qo'yilgan vazifalarni sabot bilan bajarish va harbiy saboq olish uchun Qurolli Kuchlar safiga chaqirildik, – deydi chaqiriluvchi Shohakbar Shavkatov. – Bu safda turish uchun katta sinovlardan o'tdik. Biz endi Vatan himoyachisi degan ulug' sharafiga muvassar bo'lyapmiz. Men va safdoshlarimga mana shunday mas'uliyatli vazifani ishonib topshirganlaridan minnatdorman.

Tantanali tadbir so'ngida chaqiriluvchilarga esdalik sovg'alar berildi. Xushovuz xonandalar tomonidan Vatanni madh etuvchi kuy-ko'shiqlar yangradi, she'rlar aytili. Dasturxon yozilib, keksalar duosi olindi. Vatan o'g'lonlari ana shunday o'zbekona urf-odat va harbiycha tamoyillar asosida jangovar saflarga kuzatildi.

P/S. Milliy armiyamiz saflariga yo'l olayotgan yigitlar ko'zidagi ishonch, ota-ona, qavm-u qarindoshlar qalbidagi g'urur, do'stlar tili-yu dilidagi havas...
Tantanali tadbirning qisqa, ayni damda muhim annotatsiyasi shu edi aslida.

**Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV,
"Vatanparvar"**



Tadbirda so'zga chiqqanlar tizimda mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi yo'lida kecha-yu kunduz sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilar, qutqaruvchi va xaloskorlarni kasb bayramlari bilan tabriklab, kelajakda yosh ofitserlarga sharaflari va mas'uliyatli faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tiladi.

Bayram tadbiri davomida vazirlik va akademiya rahbariyatining bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar, mukofotlar, tashakkurnoma va faxriy yorliqlari tantanali ravishda topshirildi.

XALOSKORLAR BAYRAMI

Hayotimizda kutilmaganda sodir bo'ladigan turli vaziyatlar, falokatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimidagi qutqaruv tuzilmalari vakillari birinchi bo'lib ko'makka shoshiladi. Ularning tezkor harakatlari natijasida har xil ko'ngilsizliklarning oldi olinadi, oqibatlarini bartaraf etish choralari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgan edi. Bu yil mazkur sanaga 28 yil to'ldi.

O'tgan vaqt mobaynida vazirlik qutqaruv tuzilmalari xalqimiz ishonchini qozonib, aholi hayoti va sog'lig'iga xavf tug'lganda shoshilinch va samarali yordam ko'rsatadigan, "O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish" degan ulug'vor g'oya ostida xizmat qilishga tayyor, tezkor hamda professional jamoaga aylandi. Yuqori saviyada tashkil etilgan o'quv mashqlari va mashg'ulotlarning samaradorligi soha vakillarining tajribalarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Sana munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda O'zbek Milliy akademik drama teatri va Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrining aktyor va aktrisalari, milliy estrada xonandalari, taniqli san'atkorlar va so'z ustalari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va akademiyasi faxriylari, professor-o'qituvchilar, harbiylar, xizmatchilar va kursantlar ishtirok etdi.

Tadbirni O'zbek Milliy akademik drama teatri va kino aktyori Abror Saidnazarov hamda akademiya orkestr jamoasi xonandasi Muqaddas Muhiddinova olib bordi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov o'z so'zida so'nggi yillarda vazirlik tizimida



va akademiya olib borilayotgan islohotlar natijalari va kursantlarning bilim-malakasi, matonatini sinovdan o'tkazish bilan bir qatorda ularning favqulodda vaziyatlarga oldindan tayyorgarlik va bunday vaziyatlarda harakatlanishga oid ko'nikmalari yanada oshib borayotganini, mamlakatimiz qutqaruvchilari o'tgan yilda Turkiyada yuz bergan zilzila vayronalari ostidan insonlarni qutqarib olishda ham chinakam jasorat va matonat namunalarini ko'rsatganini alohida e'tirof etdi.

Tadbirning badiiy qismida estrada xonandasi San'atbek Farmonov, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrining taniqli san'atkorlari Qobuljon Umirov va Gulnoza Saidova ijrosidagi soha xodimlariga bag'ishlangan taronalari va jonajon Vatanimizni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari yangradi.

Mayor Farhodjon XOJAYEV,
FVV akademiyasi katta o'qituvchisi

Dolzarb masala



KORRUPSIYA — RIVOJLANISHIMIZGA TO'SIQ

Korrupsiya masalasi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy global muammolardan biridir. Bu muammo har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladigan salbiy illatdir. Shuning uchun bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy oldi.

Termiz davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i U. Devonov, bosh mutaxassis A. Mansurov hamda mutasaddilar tomonidan "Korrupsiya – rivojlanishimizga to'siq" mavzusida talabalar bilan uchrashuv o'tkazildi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga

mo'ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan "Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish"ga qaratilgan ustuvor vazifalar xususida ma'lumot berildi.

Tadbirda so'z olganlar universitetda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalar ekan, bugungi kunda barcha o'quv jarayonlari "HEMIS" axborot tizimi orqali to'liq raqamlashtirilgan holda amalga oshirilayotgani, bu esa korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Uchrashuv talabalar o'rtasida korrupsiyaning oldini olish va unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori

Harbiylarning mashaqqatli hayotiga sabr qilib, oylab xizmat safarida bo'luvchi turmush o'rtog'iga sadoqat ko'rsatayotgan, viloyatlarning unisidan bunisiga ko'chib, musofirlikda besh farzandini tarbiyalayotgan, umrini turmush o'rtog'i va farzandlariga bag'ishlagan soddadil, samimiy ayol Lola Sayfullayevaga va barcha harbiy xizmatchilarning ayollariga bag'ishlanadi.

Men o'zimda bunchalik qudratni topolmagandim avval. Yillar o'stirdimi bu qudratni, yo'llar yo azoblar? Vatansizlik, daraxtdek ildiz otolmaslik yo musofirlikning musofirgina anglay oluvchi qiyinchiliklaridan yaraldimi bu qudrat? Besh farzandimning sochi, bo'yi, o'yi misol o'sib borayotgandir, balki.

Ayol monologini manzuma

Oqshom
ularni uxlatar chog'
tim qora sochlariga botib ketar
xayollarim,
o'tmishim,
tunning qaroligi.
Va qop-qora ko'zlarimda olov chaqnatib
Tong otadi oppoq, ma'suma.
Kechagina Qashqadaryoning Kasbisida
dugonalarim bilan ko'cha changitib,
Lek yuraklarni tozartirib chopardik tor ko'chalarda.
Bugun esa dunyo tor qolgan
Tor ko'chalar tanishtirgan katta baxtimdan.
O'n to'rt yilki, katta yo'ldaman,
O'n to'rt yilki, borar manzilimning oxiri ko'rinmas.
O'zim ham bilmasman
erta meni kutar yana ne manzillar
Yo'llar, odamlar...
Derazadan uzoq-uzoqlarga termilib,
Uzoq-uzoq o'yga cho'maman:
Yo'llardan iboratmikan hayotim?
Yilma-yil ajin bo'lib qo'shilar
Yo'llardan topgan topildiqlarim
Ehtimol, yo'qotganlarim.
Chirchiq, Namangan, Andijonning yo'llarida
Yoshligim qoldirib,
Ruhimga tog'larining haybatini ko'chirdim.
Siyratimga kengliklar suratini ko'chirdim.
Ko'chirolmadim yolg'iz
Kasbining tor ko'chalariga manzilim.
Ishonasizmi,
Mendan baxtli odam yo'q shu holimda ham.
Unutilmas xotiralar hadyasi uchun,
Ko'nglimni huvullatib ketar insonlar diydori,
Yo'llarda tug'ilgan farzandlarim haqqi,
Ukam va singlimning opasiz o'tgan to'ylari haqqi,
Diydoriga to'yolmagan yaqinlarim,
Qiyomatga qolgan diydorlar haqqi,
Bolalarimning eslab-eslolmay,
Tanib ulgurolmay xayrlashgan o'rtoqlari haqqi,
Adoqsiz, kutilmagan safarlar uchun,
Qo'qon-u Farg'onaning
qismatimga bitgan bitiklari haqqi,
Baxtliman!

Roziman
baxtni zarra-zarralab,
yo'llarga sohib yuborgan taqdirimdan.
Mahalladan naryog'in ko'rmagan onamning
qizin qidirib,
Yurt kezib yurganidan
Qayta-qaytalab...
Qaynona-qaynotamning
Alqab, maqtab, hovliqib,
Avval kelinini qutlashlaridan
O'g'lining katta-kichik yutug'i uchun.
Yo'llarda toblanayotgan farzandlarim haqqi,
Roziman barcha-barchasidan.
Yengil atletikachi qizning
Gardaniga tushgan og'ir-og'ir yuklar,
Vatan ichra turib, vatanni sog'inishlar,
Baxt deb atagani izidan ko'cha-ko'ch, chopa-choplari
Shodlik-qayg'uga ochilgan mardona qulochlari
Mashaqqatin anglarmikan
hatto o'sha Baxt deb ataganim ham.
Bilgisi keladi-da odamning!
Har kech uyga shoshib qaytishi,
Atayin "Lolaga" deb kostyumining cho'ntagiga
Asrab-avaylab bir dona lola solib qaytishi,
Bolalardan iymana-iymana ostonada
Charchoq o'rmalagan yuzi yorishib:
"Bu senga, Lola", deb gul tutishi qo'limga -
Bilgani shu-da bitta mayorning!
Achinmayman
"Vatansizlik" degan umrimga.
Menga boqib turgan shu ko'zlar -

Vatan!

Baxtliman!

Roziman baxtni zarra-zarralab, yo'llarga sohib yuborgan taqdirimdan...

Bahodirlar yori bo'lmoq kimlarga armon,
Zero sizga havas qilar ne-ne sanamlar.
Siz erursiz sadoqatning mulkiga sulton,
Siz erursiz mard erlarga munosib dilbar.

YUKSAK E'TIROFGA ERISHGAN GO'ZAL SOHIBALAR



Bahrom ABDURAHIMOV



Darhaqiqat, bahodirlar, ya'ni harbiy xizmatchilar yori bo'lmoq oson emas. Vatan qayerga buyursa, o'sha yerda burchiga sobit turadigan yurt himoyachisiga sevimli yor – yelkadosh bo'lish uchun avvalo sabr-u qanoat, iroda va sadoqat kerak bo'ladi. Bir emas, ikki emas, o'nlab joyga ko'chib yashaydigan, qayerda bo'lmasin, vazifasini chin dildan ado etadigan Vatan himoyachilari va ularning fidoyi rafiqalari e'tirof va e'zozga musharrafdir. Mana shu harbiy oila bekalarining bilimdon, tadbirkor, ijodkor va donoligi esa tahsinga sazovor.



Mamlakatimizda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, e'zoz va g'amxo'rlik yildan yilga yuqori bosqichga ko'tarilayotgani e'tirofqa molikdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni fikrimiz dalilidir. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamizda bir qator ezgu ishlar amalga oshirilayotganiga guvohmiz. "Men namunali harbiy oila bekasiman" shiori ostida Mudofaa vazirligi qo'shinlari miqyosida bosqichma-bosqich o'tkazilgan "Balli, ayollar!" tanlovi ham mana shu ezgu ishlar samarasi, desak, arziydi.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tanlovning yakuniy bosqichi tantanali tarzda o'tkazildi. Harbiy xizmatchilarning oilalari bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasini oshirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tariximiz, milliy an'alarimiz va urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtiromni yuksaltirishga qaratilgan tanlov bilim va ijodiy salohiyat, qobiliyat va go'zal axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan harbiy oila bekalarini yuzaga chiqarishi bilan ham qadrlidir.

Ha, ayol – o'ziga xos qudrat sohibasi. Davrani olib borgan shoira qizimiz, harbiy oila bekasi kichik serjant Dilnoza Sulaymonova ta'kidlab o'tganidek, ayol ojiza emas, zaifa ham emas, balki mo'jizadir. Tanlov davomida harbiy oilaning go'zal sohibalari mana shu haqiqatni isbotladi.

"Balli, ayollar!" tanlovining yakuniy bosqichida 9 nafar harbiy oila bekasi 6 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdi. E'tiborli jihati, shartlarga har yilgidan o'zgacha tarzda yondashildi



va ularning har bir chiqishi hay'at a'zolari tomonidan shaffof tarzda baholab borildi. Ko'rik-tanlovning odilona o'tkazilishi Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova tomonidan nazorat qilindi.

"Men baxtiyor ayolman" shartida go'zal bekalar har bir viloyatning o'z milliy libosida, videorolik qo'llagan holda qo'shiqlar va she'riy satrlar bilan o'zlari va oilalarini tanishtirdi. Ayollik baxtidan, harbiy xizmatchining rafiqasi ekanidan faxrlanishini namoyish etdilar.

"Pazanda bekajon" sharti esa harbiy oila bekalarining chaqqonligi va pazandalik mahoratini sinovdan o'tkazdi. Ulardan 5 daqiqa ichida 30 dona chuchvara tugish talab etildi. Albatta, hay'at a'zolari nazoratida, tomoshabinlar ko'z o'ngida bu shartni ado etish oson emas. Biroq pazanda



bekalar belgilangan vaqtga qadar nafaqat 30 ta, hatto 40 dan ziyod chuchvara tugib, tomoshabinlarni hayratda qoldirdi.

Uchinchi shart – "Darts", ya'ni kichik nayzachalarni uch metr masofadan otib, mo'ljalga sanchish. Uddaburon bekalar bu borada ham o'zlarini ko'rsatib, harbiy yigitlarga munosib ekanini isbotladi.

"Ayol – go'zallik timsoli" sharti ishtirokchilarning bayramona milliy soch turmagini yaratish borasida qanchalik mahoratli ekanini namoyish etdi. "Uddaburon ayol" shartida esa bilimdon bekalarining zukkoligiga urg'u berildi. Ular turmush o'rtoqlari bilan bog'liq qiziqarli savollarga zukko va yumor bilan javoblar qaytardi.

Oltinchi shart – "Bahr-u bayt" bellashuvi eng qiziqarli va olqishlarga sazovor bo'ldi. Bunda bekalar milliy va estrada yo'nalishidagi qo'shiqlardan parchalar ijro etdi. Hayajonli jihati, ulardan o'z navbati kelganda to'xtab qolmasligi, qo'shiqlarni takror aytmasligi talab qilindi. Bu borada ularning barchasiga tasanno, desak, arziydi. Negaki, bu shartda iqtidorli go'zal bekalar orasidan mutlaq g'olibni tanlash oson kechmadi.

Albatta, tanlov o'z qahramonlarini kashf etishi shart. Shunga ko'ra, "Balli,

ayollar!" tanlovi ishtirokchilarning o'zlariga xos betakror qirralarini yuzaga chiqardi. Dastlab nominatsiyalar e'lon qilindi. Hay'at a'zolarining yakuniy xulosasiga ko'ra, Shahnoza Xolmirzayeva "Eng uddaburon ayol", Sarvinoz Mamarajabova "Eng chaqqon ayol", Madinaxon Jo'rayeva "Muxlislar mehrini qozongan ayol", Sohiba Zayniddinova "Eng zukko ayol", Nigina Ne'matova "Eng latofatli ayol", Sayyora Qobulova esa "Eng pazanda ayol" nominatsiyalari g'olibi bo'ldi.

"Balli, ayollar!" tanlovida faxrli 3-o'rin g'olibligi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Surxondaryo viloyati vakili Marg'uba Saliyevaga nasib etdi. Markaziy harbiy okrugdan tashrif buyurgan Zulxumor Abduvahobova faxrli 2-o'rin g'olibligini qo'lga kiritdi. Birinchi o'rin g'olibligi diplomini tantanali ravishda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligidan ishtirok etgan Nigora Normurodovaga topshirildi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli san'atkorlari tomonidan tayyorlangan konsert dasturi tadbirga bayramona fayz ulashdi.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Harbiy libosdagi malikalar

OTA-ONASI VA USTOZLARI DUOSINI OLGAN QIZ



Inson Yer yuzidagi mavjudotlarning eng oliysi bo'lgani bois unda hech bir jonzotda bo'lmagan kuchli ne'mat, ya'ni mukammal fikrlash qobiliyati bor. Bu qobiliyatdan unumli foydalana olgan har bir inson qanday sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, yuksak marralarni zabt etishga qodir.



Biz so'z yuritishga shaylanib turgan qahramonimiz ham ana shu eng qimmatbaho boyligidan samarali foydalana olgan insonlar qatoriga kiradi. U yillar mobaynida tinimsiz o'qidi, izlandi hamda jamiyatimiz uchun kerakli insonlardan biriga aylana oldi.

Qahramonimiz O'zbekiston Respublikasida ilk bor harbiy jurnalistikaga asos solingan Mudofaa vazirligi axborot xizmatida kasb malakasini shakllantirib, boy tajriba to'pladi hamda egallagan bilimlari samarasi o'laroq bugungi kunda DXX Chegara qo'shinlarida harbiy jurnalistikaning o'ziga xos maktabi yaratilishida munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Ushbu maqola orqali sizga "Shuhrat" medali sohibasi, DXX Chegara qo'shinlarining matbuot yo'nalishida xizmat faoliyatini olib borayotgan mayor Farida Bobojonovaning mashaqqatli, ammo sharafli hayot yo'li haqida hikoya qilamiz.

Farida 1982-yilning 24-avgust kuni Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida Mansur aka va Hamida aya Bobojonovlar xonadonida dunyoga kelgan, oilada uch qizning o'rtanchasi. Opasi Umidaxon va singlisi Saidaxonlarning ta'rifi shicha, qahramonimiz bolaligidan tirishqoq, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, shuningdek u favqulodda kuchli xotirasi va ravon nutqi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan.

Bolalikdan ona tili va adabiyot fanlariga qiziqishi baland bo'lgan Farida yoshlik chog'laridanoq jurnalist bo'lishni orzu qiladi hamda bu orzusiga erishish maqsadida maktabni a'lo baholarga tamomlab, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at institutining jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi. Qaysi ishga qo'l ursa, shu ishni eng a'lo darajada bajarishga o'rgangan qahramonimiz oliy o'quv yurtini 2003-yilda bakalavr va 2005-yilda magistratura bosqichlarini tamomlaydi. Tinib-tinchimas qahramonimiz 2006-2009-yillarda mazkur oliy o'quv yurtining aspirantura bosqichida ham tahsil olgan.

Faridaning ilmga chanqoqligi, tirishqoqligi o'zi tahsil olgan institut rahbariyatining e'tiboridan chetda qolmaydi va san'atshunoslik kafedrasiga o'qituvchi sifatida ishga taklif etilib, o'zi tahsil olgan ilm dargohida faoliyatini boshlaydi.



2009-yilning bahor oylarida bir guruh harbiy mas'ullar bilimlari, faol talabalar ichidan harbiylik sohasiga qiziqishi borlarini harbiy xizmatga qabul qilish maqsadida kelganlarida institut rahbariyati bunday talabalar ro'yxatini shakllantirish vazifasini Faridaga yuklaydi.

Har bir ishga mas'uliyat bilan yondashuvchi qahramonimiz o'z ish kompyuterida imlo qoidalariga to'liq amal qilgan holda ro'yxatni shakllantira boshlaydi. Bu jarayonni kuzatib turgan mas'ullar unga harbiylik kasbini taklif etadi. Farida avvaliga taklifni rad etib, shu kuni ishdan qaytgach, rahmatli otasi Mansur akaga bo'lgan voqeani aytib beradi. Shunda otasi: "O'g'lim bo'lganida, albatta, harbiy xizmatchi bo'laman, desa, xursand bo'lar edim, ammo sen qiz bolasan, shuning uchun ixtiyor o'zingda", deydi. Suhbat yakunida Farida otasini bag'riga mahkam bosib, "Men sizga o'g'illik qilaman, kerak bo'lsa, harbiy bo'laman va so'nggi nafasimgacha siz va onamning xizmatida bo'laman", deb va'da beradi.

Ertasi kuni qahramonimiz o'zgacha shijoat bilan ishga boradi. Bir kun oldin kelgan mas'ul xodimlar bilan yana uchrashadi va harbiylik kasbini tanlashga rozilik bildiradi. Mana shu onlardan boshlab Faridaning hayot yo'li tubdan o'zgarib ketadi.

Qahramonimiz uchun yangi sohaning dastlabki yillari juda og'ir va sinovlarga boy bo'ladi. Unga yangi ish joyida aspirant, ustoz deb emas, balki Qurolli Kuchlar oddiy askari sifatida muomala qilar edilar va u 2009-yildan 2013-yilga qadar yuksak g'urur bilan kontrakt bo'yicha oddiy askar harbiy

unvonida xizmat o'tadi. 2013-yilda esa uning 5 yillik sabri va samarali xizmati o'z mevasini berib, Faridaga dastlabki ofitserlik harbiy unvoni – "leytenant" beriladi. Shundan so'ng Farida 2017-yilga qadar Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy qismlarda turli lavozimlarda xizmat qiladi.

2017-yili taqdir qahramonimizni o'zi yoqtirgan soha – jurnalistikaga, to'g'rirog'i, harbiy jurnalistikaga olib kiradi. Qisqa muddat ichida bu tirishqoq qiz jurnalist sifatida Qurolli Kuchlar tuzilmalarida faoliyat yuritayotgan soha mutaxassislari orasida ham katta hurmat va e'tibor qozonadi. 2021-yildan esa qahramonimiz DXX Chegara qo'shinlari matbuot xizmatida faoliyat yurita boshlaydi.

Farida qisqa muddat ichida chegara xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandi va hozirgi vaqtda DXX Chegara qo'shinlari tomonidan erishilayotgan yutuqlar hamda xizmat faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlarning ommaviy axborot vositalari orqali keng ko'lamda yoritib borilishida tashabbus ko'rsatib kelmoqda.

Quvonarli, 2023-yil mart oyida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga safari doirasida DXX Chegara qo'shinlarining bo'linmasiga tashrif buyurganida mayor Farida Bobojonova davlatimiz rahbari bilan uchrashish baxtiga muvassar bo'ldi hamda kichik bir bo'linma misolida chegarachilar va ularning oilalariga yaratilayotgan sharoitlarni juda sodda va faxr-iftixor bilan aytib berdi. Faridaning uzoq yillik izlanishi hamda mehnatlari 2023-yil avgust oyida – Mustaqillik bayrami arafasida yana o'z mevasini berdi, ya'ni mayor Farida Mansurovna

fidoyi xizmatlari uchun davlatimizning yuksak mukofoti – "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

DXX Chegara qo'shinlarida davlat mukofoti bilan taqdirlangan harbiy xizmatchilarning ota-onalarini ham mana shunday farzand tarbiyalab voyaga yetkazgani uchun Chegara qo'shinlari qo'mondonining tashakkurnomasi bilan taqdirlash an'ana tusini olgan. Ammo, afsuski, bu vaqtga kelib qahramonimizning otasi Mansur aka va onasi Hamida aya yorug' dunyoni tark etgan edi. Shuning uchun biz ota-onasi uchun beriladigan tashakkurnomani qahramonimiz doimo otasidek ulug'lab keladigan ustoz Hayitmat otaga berishga qaror qildik. Sababi Faridaning bu kabi ulkan marralarni zabt etishida nafaqat ota-onasi, balki ustozining ham o'rni beqiyosdir.

Qahramonimizning ustoz Hayitmat Abdurasulov huzuriga Vatan himoyachilari kuni arafasida DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonining tashakkurnomasi bilan taqdirlash uchun borganimizda ustozni ko'zida yosh bilan: "Boshqasi bo'lsa, kutmagan bo'lar edim, ammo Farida eng sodiq hamda o'tkir zehnl shogirdlarimdan biri va men uchun o'z qizimdek bo'lib qolgan. U har doim meni mana shunday quvontirishiga o'rganib qolganman, shuning uchun, to'g'risi, bu tashakkurnoma kutilgan sovg'a bo'ldi", dedi. Shu lahzalarda biz hamkasbimizni nafaqat malakali xodim, balki inson sifatida ham sof tuyg'ular sohibasi ekaniga guvoh bo'ldik.

Farida barcha yutuqlarga faqat ota-onasini xursand qilish hamda duosini olish uchun harakat qilib erishgan. U manaman degan er yigitlar bajara oladigan jasoratni ko'rsatib, otasi Mansur aka va onasi Hamida ayani so'nggi manzilga kuzatgunicha yonlarida bo'lib, belidan belbog'ini yechmay, xizmatlarida bo'ldi.

Hozirda qahramonimizning o'zi ham ustozlik yo'llarini bosib o'tmoqda va ko'plab shogirdlariga harbiy jurnalistikaning o'ziga xos sirlarini o'rgatib kelmoqda. Jamiyatimizda mayor Farida Bobojonova kabi o'zi o'rganib, qolganlarga ham o'rgatadigan insonlar ko'p ekan, Yangi O'zbekistonimiz dunyo hamjamiyatining hurmat-e'tibori markazida bo'laveradi.

Biz har doim qahramonlarni o'tmishdan va mashhur odamlar orasidan izlaymiz, ammo unutmash kerakki, har zamonning o'z qahramonlari bor va u qahramonlar siz-u bizning oramizda.

**Polkovnik O. MUXAMEDOV,
kapitan D. RAXMONOV**



GO'RO'G'LINING QIRQ YIGITI KEZGAN DUNYO



Doston qahramonlarining, birinchidan, ilohiy pirlar panojida bo'lishi voqea jarayonlarida o'z isbotini topsa, ikkinchidan, ularga yoshlikdan beriladigan ta'lim-tarbiya, harb ishi sabog'i muhim xususiyat kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

Dostonlardan dostonga ko'chib yuruvchi "qirq yigit" epik qolipi fikrimizga dalil bo'la oladi. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning doimiy hamrohi, uning og'ir va shodon kunlarida birga bo'luvchi ushbu qirq yigit obrazi ko'plab dostonlarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Chunki Go'ro'g'lining dong'ini dunyoga taratishda, Chambilning obod va farovon bo'lishida qirq yigitning xizmatlari beqiyosdir. Baxshilarning talqiniga ko'ra, qirq yigit qirq urug'dan, qirq eldan o'z xohishi bilan kelib, Go'ro'g'liga xizmat qilishga ahd qilgan. Mana shu tariqa ular Go'ro'g'lining har qanday paytda suyana oladigan

xos armiyasiga aylanadi. Ammo biror bir manbada yoki baxshi tilida qirq yigitning ismlari nomma-nom sanalib, ularga xos xislatlar aniq ko'rsatib o'tilgan emas.

Taniqli baxshi Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan shoir "Yunus pari" dostonida "Qirq yigit"dan bir nechtasining ismi va xususiyatlarini sanab o'tadi. Ular: Gajdumxon, Murodboy, Xidirali elbegi, Doniyor xo'ja, Berdiyot otaliq, Safo, Safoning o'g'li Mustafu chaqqon, Takabegi Zamon, Safarboy, Xoldor mahram kabilardan iborat.

Agar nomdor baxshi qayd etgan Mirza Askar, Ashurbek sardor kabilari qo'shib hisoblansa, qirq yigit miqdori ancha ko'payadi.

V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifov bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Qorajon Alpomishni ajdarhoga o'xshatadi. Go'ro'g'lining 40 yigiti dostonlarda "Chambilning qirq ajdarhosi" yoki "uning qabatida 40 yigit, 40 ajdahosi bor" deb keladi. Hasan dushmanlariga "ajdar bo'lib, damiga barisini tortsam", deb keladi.

Umuman olganda, qirq yigit ko'pgina dostonlarda qahramon bilan maslahat quradi, fikr almashadi, turli mushkul masalalar bo'yicha yordamga shoshadi. Ayniqsa, uzoq va xatarli safarlarda qirq yigit doim qahramon bilan birga bo'ladi. Qirq raqamining mifologik tasavvurlar bilan aloqadorligini hisobga olsak, bu termin dastlab ertaklarda paydo bo'lib, keyinchalik dostonlarga ham ko'chib o'tgan.

Folklorshunos M. Jo'rayev bu haqda shunday yozadi:

"... qirq raqami "yashirin jamiyat" a'zolari sonini sir saqlash maqsadida qo'llanilgan ritual kod o'rnida qo'llangan. Davrlar o'tishi bilan "ritual ko'plik" folklor asarlaridagi "epik ko'plik" darajasiga o'sib o'tgan... ritual ko'plikdan folklor matnlaridagi epik ko'plikka o'tish qirq raqamining "sehrli" son sifatidagi eng muhim xususiyatidir".

"Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlarni sinchiklab kuzatar ekanmiz, qirq yigit bilan bog'liq ko'plab holatlarga duch kelamiz. Dostonda Go'ro'g'li qirq yigitining so'nggi taqdiri haqida so'zlar ekan, shunday deydi:

"Go'ro'g'li kelib bilsa, yaqinlari va yigitlaridan Og'a Yunus, Avazxon, Safar ko'sa barhayot bo'lib, qolganlari vafot etgan va tarqalib ketgan ekan".

Biz quyida qahramonlik va jangnoma dostonlarida nomlari zikr etilgan, qirq yigitdan biri sifatida e'tirof etiluvchi ayrim sarkarda va sardorlar obrazini tadqiq markaziga tortamiz.

Ahmad sardor. "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlardagi

yirik obrazlardan biri Ahmad sardor hisoblanadi. Uning ismi arabcha "Ahmad" va laqabi fors-tojikcha sardor – sof lug'aviy ma'nosi "kallasi bor" so'zidan olingan bo'lib, yo'l boshlovchi, lashkarboshi kabi ma'nolarda qo'llanadi.

Po'ltan shoir "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Ahmad sardorni yosh Go'ro'g'lining tog'asi sifatida Ravshan ko'r vafotidan keyin o'ziga o'g'il qilib olib, uyida tarbiyalaydi.

Ahmad sardor obrazi turkum dostonlarida turli xarakterdagi murakkab personaj sifatida gavdalanadi. Ba'zi baxshilar uni Go'ro'g'liga xayrixoh, uning homiylaridan biri sifatida ta'riflasalar (masalan, Po'ltan shoir), ayrim baxshilar uni Go'ro'g'liga hasad bilan qarovchi, uni ko'ra olmaydigan dushman sifatida tasvirlaydilar (masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Rahmatulla Yusuf o'g'li kabilari).

"Yusuf bilan Ahmad" dostonining Muhammad Jonmurod o'g'li Po'ltan hamda Fozil Yo'ldosh o'g'lidan Xodi Zarif yozib olgan variantida Ahmad sardor Go'ro'g'lining sodiq sarkardalaridan biri Ashurbekka tuhmat qiladi. Bunga ishongan Go'ro'g'li Ashurbekni o'limga hukm etadi. Quruq tuhmat bilan ayblangan Ashurbek esa qizilboshlar tomonga qochib, zo'rg'a o'limdan qutulib qoladi.

"Malla savdogar" dostonida Go'ro'g'lining tog'asi Ahmad vazir boshqa variantida Ahmad sardor timsolida o'z manfaati va farog'ati uchun munofiqlik, ayyorlik, nafs va sharob genezisi bilan bog'liq voqealar fonida tasvirlanadi.

Hatto baxshilar tomonidan Ahmad sardorning o'limi haqida maxsus dostonlar yaratilib ("Ahmad sardorning o'limi") ijro etilgani haqida ma'lumotlar bor.



Xulosa qilganda, Ahmad sardor obrazi turkum dostonlarda ikki xil, ya'ni bir versiyada Go'ro'g'lining mehribon tog'asi va homiysi, ikkinchi versiyada u Yovmit taxtiga o'tira olmogach, Go'ro'g'li va Avazni ko'ra olmaydigan, ularga zimdan dushmanlik qilib yurgan shaxs sifatida tasvirlanadi.

Safo o'g'li Chaqqon. Darvoqe, dostonlarda biz nomini ham eshitmagan ayrim qahramonlar borki, ular, shubhasiz, har qanday kishida o'z jangovarligi, vatanparvarligi, hech bir mushkulotdan bo'yin tovlamasligi bilan tilga olinadi. Ulardan biri Safo o'g'li Chaqqondir.

“Go'ro'g'li” turkumiga mansub o'zbek xalq dostonlarida nomi tilga olingan ushbu jangchi o'zining dovyurakligi va mardligi bilan alohida ajralib turgan. 1981-yilda Bola Baxshi Abdullayevdan folklorshunos S. Ro'zimboyev yozib olgan “Qirq minglar” dostonida keltirilishicha, Safo o'g'li Chaqqon Emreli qabilasining sardori bo'lib, o'zining botirligi va ko'rsatgan qahramonliklari bilan Go'ro'g'lining sarguzashtlarida ishtirok etgan.

“Intizor” dostonida ushbu qahramon nomi tilga olinib, quyidagicha tasvirlanadi:

*Har kim ko'rib qoyil bo'lgan,
Har yurishda o'lja olgan,
Sipohi guzari bo'lgan,
Safo o'g'li keling Chaqqon!*

“Yusuf bilan Ahmad”

dostonida ham bu obraz o'zining dovyurakligi, kuch-qudrati bilan voqealar rivojida alohida o'rin egallaydi:

*“Lashkarlar orasinda Safar afg'on
degan bir alp bor edi. Ul har tomoq
yeganida yetmish qo'y birla yigirma
besh tuyaning etini yer edi”.*

Safobek yoki Safo o'g'li Chaqqon nomi bilan tilga olinadigan bu botir, yoshi anchaga borib qolganiga qaramay, o'zining benihoya jasurligi va mahorati bilan yoshlarga o'rnak bo'lib, Go'ro'g'lining qirq yigitiga sardorlik qilgani aytiladi.

“Go'ro'g'li” dostonida Ashur mirshab Avaz O'g'londan hol so'rar ekan, bir qancha polvonlar qatori uning ham nomini tilga oladi:

*Safo o'g'li derlar o'zini Chaqqon,
Mamarayim bekdir, tarafsiz polvon,
So'zlagan so'zlari muloyim, xandon,
Shoh vaziri bek Xoldorxon omonmi?*

Rustam. Epik dostonlarda qahramon kuch-qudratini ta'riflashda namuna bo'la oladigan yana bir afsonalardan biri Rustamdir. O'zining pahlavonligi bilan nom qozongan qahramon “Rustami doston” nomi bilan mashhurdir. Afsonalarga ko'ra, u kayoniylar sulolasi hukmronligi davrida yashab o'tgan.

“Jahon pahlavoni” nomini olgan Rustam seistonlik bahodir Zol bilan Qobil hukmdori Rudobning qizidan tug'ilgan bo'lib, nihoyatda baquvvatligi, jang-u jadallarda mislsiz qahramonlik ko'rsatgani bilan dong qozongan. Bu mifonim qadimgi sug'd tilida “rotastaxm” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi “bahodir”, “pahlavon” demakdir.

Pahlavon Mahmud. O'rta Osiyoda keng shuhrat qozongan yengilmas kurashchi polvon Pahlavon Mahmuddir. U iste'dodli shoir va XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida yashagan nomdor shaxs. Polvon xalq orasida “Pahlavon Mahmud”, “Polvon ota”, “Polvon pir”, “Polvon pir Piryorvali” kabi nomlar bilan tanilgan bo'lib, “Qitoliy”, “Iqboliy” taxalluslari bilan ijod qilgan.

Polvon ota o'zbek folklorida kuragi yer ko'rmagan pahlavon, kurashchi polvonlarning afsonaviy ustoz, kishilarning mushkulini oson qiluvchi mifk homiy-pir, g'ayritabiyy yo'sinda mo'jiza ko'rsatuvchi avliyo, o'z xalqini himoya qiluvchi mard va tanti pahlavon sifatida tasvirlanadi.

Manbalarda keltirilishicha, u 1322-yilda vafot etgan bo'lib, Xiva shahrining Ichanqal'asiga dafn etilgan.

“Yusuf bilan Ahmad”

dostonida Yusufbek dutorni qo'lga olib, turnalarga kuylar ekan, “Polvon ota” nomini aytib o'tadi:

*Qizlari chiqadi Polvon otaga,
Nazrini beradi Sayid otaga,
Yomonlari yaxshisidan sadag'a,
Shohsanam sifatli qizlar omonmi?*

Dostonida misralardagi Polvon ota ishtibohi orqali Pahlavon Mahmudga ishora qilinmoqda.

Taka begi Zamon. Taka begi Zamon tarixiy shaxs bo'lib, Nodirshoh davridagi harbiy yurishlarda faol ishtirok etgan sarkardalardan biridir.

“Go'ro'g'li” dostonida Ashur mirshab Avaz O'g'londan hol so'rar ekan, bir qancha polvonlar qatorida uning nomini ham keltiradi:

*Chambil elatlarin sendan so'rayin,
Shavkatli Go'ro'g'li sulton omonmi?
To'qson to'qqiz biylar*

boshi bek Ahmad,

O'sha og'a begi Zamon omonmi?

Qassob o'g'li Avazxon. O'zbek xalq dostonchiligidagi epik an'anaga ko'ra, Chambil bahodirlaridan biri, mard va botir yigit Avazxon Go'ro'g'lining tutingan o'g'lidir. “Go'ro'g'li” eposining Xorazm versiyasi talqinicha, Go'ro'g'li Vayongonga borib, Bulduruq qassobning o'g'li Avazxonni olib keladi va o'ziga tutingan o'g'il qilib asrab oladi. O'zbek baxshilari repertuarida bu epik qahramon nomi bilan bog'liq “Avazxon”, “Avazning arazi”, “Avazning uylanishi”, “Kunduz bilan Yulduz”, “Bo'tako'z”, “Intizor”, “Zulfizar”, “Gulixiromon”, “Malika ayyor”, “Balogardon” va boshqa dostonlar mavjud bo'lgan.

Xoldorxon. “Go'ro'g'li” turkumiga mansub o'zbek xalq dostonlarida epik qahramonning qirq yigitidan biri sifatida tasvirlangan Xoldorxon (“Xoldor mahram” deb ham ataladi) o'zining botirligi va bahodirligi bilan ajralib turgan.

V.M. Jirmunskiy, X.T. Zarifovning “Узбекский народный героический эпос” kitobida u Go'ro'g'lining qirq yigitidan biri – yigirma yigitning sardori Xoldorxon deya tasvirlanadi.

Botir Solor qozon. Qadimgi o'g'uz eposining qahramonlaridan biri Qozonbek yoki Solor qozon Bayondurxonning kuyovi va uning beklaridan biri bo'lib, “Dada Qurqut kitobi” hamda Abulg'oziyning “Shajarayi tarokima” asarlarida salor urug'i yigitlarining sardori sifatida tasvirlangan. O'g'uz bahodirlari orasida eng mashhuri hisoblangan Solor qozon sarguzashtlari “Shajarayi tarokima”da keng bayon etilgan.

Bu obrazning “Yusuf bilan Ahmad” dostoni va shu mavzudagi xalq qissalariga kirishi qachonlardir qadimgi o'g'uz eposiga mansub syujetlar, xususan Solor qozonga bag'ishlangan epik qo'shiqlar Xorazm vohasida keng yoyilgani bilan bog'liqdir.

Qoraxol misiri. “Yusuf bilan Ahmad” dostoni syujetida ushbu qahramonning nomi ko'plab uchraydi. Ushbu botir tuganmas

kuch-qudrati, o'limga tik boqa olishi, g'urur, or-nomus uchun jonidan ham kecha olishi bilan o'quvchida yorqin taassurot qoldiradi.

Go'zalshoh lashkarlaridan Qoraxol misiri degan botir ot o'ynatib, turli sipohigarning o'yinlarini qilib, maydonda mard tilab chiqish sahnasi bor. Shunda Shohpo'latxon lashkaridan bir polvon chiqib, talabgorga yuzma-yuz kelib, urushga qo'l qo'ydi. Ana shunda Qoraxol misiri bir zarb bilan qilichi qo'lida, haligi polvonni ikki bo'lib o'tib ketdi.

Devtoosh. “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” jangnoma dostonlarida asosiy polvonlardan sanalgan bu obraz yakka o'zi butun qo'shinga qarshi kurashishga tayyor dovyurak botir sifatida gavdalanadi.

*“...Alibek tarafdin Devtoosh
maydonga kirib, mard talab qilib,
g'alag'ul lashkarga qarab bir so'z aytib
turibdi. Ana endi Devtoosh: “Tanhoma-
tanho, kel-ha, kel!” deb turdi. Hech kim
maydonga kela olmadi. Devtoosh bir
fasl yarim soat, talabgor, deb turdi.
Po'latshohning hech odami kelmadi.
Devtoosh ot qo'ydi, tanho bir o'zi
qo'shinning bir chetidan bo'ri qo'yga
chopganday tiyib, qo'shinni qo'yday
hurkitib, lashkarni bo'lak-bo'lak qildi”.*

To'lak botir. O'zining yumoristik tabiatga egaligi bilan ajralib turadigan To'lak botir obrazi “Go'ro'g'li” turkumi dostonlarida ham uchraydi. Xususan, “Gulixiromon” dostonida asli qandahorlik bo'lgani uchun “Kandaxar” nomi bilan atalgan bu qo'rqqoq botir jang oldidan yovning ko'pligini ko'rgach, o'zini yo'qotib qo'yadi va:

*Yilda berding botmon tariq,
Bir ot berding saman sariq,
Chopay desam eti oriq,
Qo'y, men-ku navkar bo'lmayman!
Bor, men-ku navkar bo'lmayman! –*


deydi.

Bu kabi sarkarda va botirlar dostonidan dostonga ko'chib yursa-da, ammo har bir asarlarda ularning o'z fe'l-atvori, voqealar rivojida o'ri, turish-turmushi bir-biridan farq qiladi. Chunki dostonlarga xos bo'lgan og'zakilik har bir qahramonga o'ziga xos ruh bag'ishlaydi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”**

Oltinchi iyul kuni polk Panjsher tomon yo'l oldi. Kolonna boshida bizning 180-polok, ortimizdan 181-polok va artilneriya polki kelayotgandi. Eng oldinda mina maydonlarida yo'lak ochadigan mina trallari, uning ortidan bizning uchta tank, keyin birinchi rotaning ikkita BMP-2 mashinasi, ta'minot vsvodi mashinasi, keyin Gaz-66, kolonna shu tartibda harakatlanmoqda edi. Keyingi qatorida minamyot batareyasi va boshqa rota, vsvodlar.

2 yil-u 3 oy Panjsher darasida ajal oralab...



Panjsher darasiga kirishni boshladik.

Havo juda issiq, yuzimizni bint niqob bilan berkitib, avtomatlarni ham bint bilan o'rab tashlagan edik. Yurishda davom etib, kichik qishloq yonidan o'tdik, uylarning yarmidan ko'pi buzilgan, aholisi yo'q. Yo'llar notekis, mashinalar tog' yonbag'irlab borar, yo'lning o'ng tomonida Panjsher daryosi, uning narigi tomonida bir-biriga ulanib ketgan tog'lar. Nihoyat katta kenglikka chiqdik. Shu kenglik o'rtasida yonib faqat kuzovi qolgan oltita "Zil" mashinasiga duch keldik.

O'ttiz metr yurmay, mina trallari g'ildiragi minani bosdi, kuchli portlash sodir bo'ldi. Kolonna to'xtadi. Daryo qirg'og'i uzoq emas, askarlar yuz-qo'lini yuvib, kolonnaning yurishini kutib, sigaret tutata boshladilar. Men ham yuvib kelib, BMP ustiga chiqdim, Shamil lyukdan chiqib yonimga o'tirdi. "Charchadim, mashinangda ketaman, qornim ham ochdi", dedim unga. Tushyonka bilan non yeb o'tirganimizda pulemyotchi Kalbiyev kelib, issiqlab ketdim dedi-da, bronejiletini yechib mashina ustiga tashladi. Unday qilma, kiyib ol, deyishimizga qaramay, tez oldinga qarab ketdi.

Shu paytda bizni tog'da kuzatib o'tirishganini bilmasdik.

Kolonna qo'zg'aldi. Yigirma metr yurmay, yana bir mina portladi, yana to'xtadik. Mina trallariga yaqin yurgan ikki sapyor askar va Kalbiyev oskolka tegib halok bo'ldi. Men negadir u joyga bormadim, borib ko'rgan askarlar Kalbiyevning ko'krigiga oskolka tegibdi, deb aytishdi, bronejiletini yechmaganida omon qolar edi, afsus...

Halok bo'lganlar mashinalarga olindi. Ko'p yurmadik. Men mashina ustida edim. Keyingi portlash oltimish metrlar ortimizda bo'ldi. Mashinadan tushib portlash bo'lgan joyga bordim, "Ural"ning kabinasi o'n metr nariga uchib ketgan.

Haydovchi askarning bir oyog'i son qismidan uzilib qayergadir uchgan, yuztuban yotar, tanasida jon asari yo'q. Haydovchining yonidagi serjantning ham bir oyog'i sonidan uzilgan, yuzlari qon, u so'kinib, suv beringlar, dedi. Feldsher unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatdi. Vertolyot chaqiringlar degan buyruq bo'ldi. Shamilning yoniga qaytdim. Ruhii holatim g'alati, tushunarsiz, hech narsani his qilmay qoldim, qiziq, lekin qo'rquv ham yo'q.

Ko'p o'tmay, ikkita vertolyot yetib keldi. Mi-8 vertolyoti pastlay boshladi, ikkinchi vertolyot toqqa qarata uch, to'rtta raketa bilan zarba berdi. Mi-8 ishora berilgan joyga pastlab, yerga besh, olti metr qolganida birdan o'ngga engashib tepaga ko'tarildi-da, yuqorilab daryo tomonga uchib ketdi. Vertolyotchi tajribali ekan. Chunki sanoqli daqiqalarda ishora qilingan yerga raketa uchib kelib portladi.

Shundan keyin kolonnaga yoppasiga o'q yog'dirishdi, boshimiz ustidan o'qlar uchib o'ta boshladi, pastga sakradim. Otishma juda avjiga chiqdi. Tanklar, BMPlar toqqa qaratib to'xtovsiz o'q uzar, u tomondan ham raketa, avtomat va pulemyotlardan javob kelardi. Yonimga yalang'och badaniga bronejilet kiyib olgan minamyotchi Boymurod yugurib keldi, "Sodiq, orqada yomon bo'lyapti", dedi.

Shamilning mashinasi panasida askarlar ko'payib ketdi. Bu yerdan ketib, daryo yaqinidagi katta toshlar ortiga yashirindik. Bu paytda snayperchi edim, men ham toqqa qarab o'q uza boshladim. Orqa tarafda Gaz-66 yona boshladi. Shu daqiqalarda Shamilning mashinasiga ham raketa bilan zarba berishdi. Raketa BMP korpusini teshib kirib, ichkarida portladi. Operator omon qolgan, Shamilning bir oyog'i to'pig'idan uzilib ketgan, ikkinchi oyog'i ham sog' emasdi. Uni mashina ichidan feldsher va bir askar tortib chiqarib, daryo tomonga pastlikka olib kelishdi. Men shundoq yonida edim, bir ofitser unga ukol qildi, suv berdi, Shamil bir nimalar dedi va shu yerdagi joni uzildi.

BMP lentasida taxminan 500 ta o'q bo'larkan, Shamil mashinasidagi o'qlarning portlashi uzoq davom etdi. Bir necha soatlik otishmalardan keyin kolonna katta talafot bilan yana oldinga yurdi. Bir vertolyot xavfsiz yerga kelib kutib turgan ekan, yarador va halok bo'lganlarni vertolyotga ortishdi. Plashchodir ko'tarib kelayotgan askarlardan biri mendan yordam so'radi. Ularning qatoriga qo'shildim. Plashchodirda belidan pasti yo'q, kuyib ketgan bir askar jonsiz yotardi.

Panjsher darasi juda katta maydonni egallagan ekan.

Aytilgan manzilga ajal oralab keldik, nazarimda.

Ertasi kuni nonushtadan keyin dam olib yotdik. Iyul oyi, havo issiq. Daryo qirg'og'iga borib kiyimlarimni

yuvdim-da, suvga sho'ng'idim, daryo suvi tez oqar, muzdek, sovuq edi. Ancha yengil bo'ldim, ruhim ko'tarilib, artilneriyachilar oldiga bordim. Ularning orasida asakalik hamshahrim Shavkat degan askar bor edi. Qidirib topdim, rosa vaqtda borgan ekanman. Nimadir bo'lib gaubitsa bashnyasi aylanib, belidan oraliqqa qisilib qolgan ekan. Menga tushuntirdi, sekin bashnyani orqaga qaytardim, oraliqdan chiqdi-da, "agar paytida kelmaganingizda o'lib qolardim", dedi. Ancha suhbatlashib o'tirdik.

Keyingi kuni tongda jangovar topshiriq oldik. Kunbo'yi yurib, kechga yaqin tog' ustiga chiqdik. Tevarakda hech qanday shubhali harakat sezilmadi. Atrofga ikkittadan soqchilar qo'yildi, qolganlar tappa-tappa tashlab plashchodirini yozib uyquga ketdi. Tun tinch o'tdi. Dengiz sathidan 3 ming metrlar balanddamiz. Havo shunchalar tozaki, miriqadi odam. Bu yerda uch haftalar turdik. Bir, ikki voqealar bo'ldi.

Avval aytib o'tganimday, ayrim voqealarning sanasi aniq yodimda qolmagan. Shuning uchun ba'zi hikoyalarni yana bir voqea bo'lgandi deb boshlashimga to'g'ri keladi.

Sentabr boshida Bagram tog'larida bo'lib, harbiy qismga qaytayotgan kunimiz qorong'i tushib kelayotgan edi. Men negadir razvedvsvodning BMP-1 mashinasiga chiqib olgandim, mexanik askar qo'qonlik Rahmatillo edi. Balki u birga ketamiz degandir. Bilmadim. Kichikroq qishloq yaqinidagi tuproq yo'l. Biz kolonnaning boshrog'ida edik, oldimizda beshtacha mashina. Men operator lyukini ochib, ichkariga oyog'imni tushirib o'tirib olgandim. Oldimizdagi mashinalar o'tib, bizga kelganda mina portladi. 15 tonna keladigan mashina yarmigacha yon tomonga ko'tarilib tushdi. Italiyada ishlangan sariq korpusli, prujinali tankka qarshi mina portlagandi. Chang, qora tutun oralig'ida jon hovuchlab mashinadan sakradik.

Mexanik kabinasining ostki po'lat qatlami ochilib, o'rindiq bir tomonga bukilib ketgandi. Mashina mexanigi Rahmatilloning bir yoni beligacha o'yilib, judayam og'ir jarohat olibdi. Bunday voqealarni ko'raverganingdan keyin diydang ham qotib ketar ekan. Uni mashinadan tortib olib, birinchi rotadagi texnikumda birga o'qigan do'stim Rahmonning BMP-2 mashinasi ustiga chiqardik. Yo'lni Kobul gospitaliga burib, shitob bilan ketdik. Chamasi bir soatlar yurdik, Rahmatillo "bollar o'lyapman", deydi, biz "chida, o'lmayсан, mana oz qoldi" deya dalda beramiz. Afsuslar, gospital darvozasi ochilayotgan vaqtda uning joni uzildi. Barchamiz chuqur, anglab bo'lmaydigan qayg'uda qoldik.


Shokirov Rahmatillo Zokirovich 1964-yil 3-noyabrda Qo'qon shahrida tug'ilgan, Afg'onga 1984-yil noyabrda kelgan edi. 1985-yil 12-sentabrda halok bo'ldi. Xudo rahmatiga olgan bo'lsin!

(Davomi bor)

Sodiqjon ALIMOV

Hamza tavalludining 135 yiliga

Hamza Hakimzoda Niyoziy.
1889-yil 6-martda tug'ilgan.
1929-yil 18-martda fojiali ravishda vafot etgan.



Yamin o'g'li HAMZA HAKIMZODA Niyoziy



40 yil yashagan Hamza umrining so'ngiga qadar, ya'ni 1929-yil 18-mart kuni Shohimardondagi fojiali hodisa sodir bo'lgunga qadar tig'iz yashadi. Uning XX asr boshlaridagi talato'p zamonda Vatan va millat, ulus ta'limi va tarbiyasi yo'lidagi ishlari hozirgi odam uchun ancha murakkab, bir kishi qiladigan ishlarga o'xshamaydi. Balki zulm ostida qolgan, istibdod, jaholat changaliga tushgan millatning oh-u nolasi Yaratganga yetib, Behbudiy, Fitrat, Hamza, Ubaydullaxo'ja kabi o'nlab jadidlarni

berganmi bu xalqqa, deb o'ylab qolasan, kishi.

"1889-yilda tug'ulib, otam o'qimishli bo'lsin uchun 1898-yilda o'zbekcha, forschaga tom savodli bo'lib, 1899-yildan 1906-yilgacha madrasada eski usul bilan dars o'qidim. 1907-yili, otam haj ketishi munosabati ilan, birga Qashqarg'acha uzatish munosabati-la sayohatga borib, birinchi martaba "Vaqt", "Boqchasaroy" gazetalarini o'qishga shundan o'rganib qaytdim. Shundan boshlab kundan kun eski xuroftolarni, madrasa o'qishlarini, xalq tirikchiligidagi o'zgarishlarni, madaniyat, iqtisod degan masalalarni tekshirishga kira boshladim", deydi Hamza 1926-yilda yozgan tarjimai holidi. U oilada ota-onasiga Hofiz, Bedil, Yusuf Ahmad kabilarning she'riy risolalarini o'qib berarkan, o'zining aytishicha, musiqa va she'r yozishga "dardlangan". Yillar o'tarkan, "madrasini tashlab, biror tomonga ketib o'qish havasi" uni tinch qo'ymaydi. Ammo oilasining moddiy nochorligi bu ishga monelik qilardi.

1908-yil Namanganda Abdulla To'qmullin ismli kishi uning 100 sahifadan ortiq eski usuldagi she'rlarini ko'rib, jiddiy tarbiyaga kirishadi. Shu yerda bir necha fanlardan saboq oladi, "1905-yil rabochiy inqilobi" haqida ham shunda xabardor

bo'ladi. Namanganda kechirilgan hayot Hamzaning kelgusi faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi: "Qo'l matbaasi bilan mayda risolacha, e'lonlar chiqarib turuvchi bir tatar yigiti bo'lub, men har haftada bir-ikki uning bilan suhbat qiladur edim. Ul meni xiyli dardlag'an bo'lsa kerak, shul kundan boshlab, eski podsholar turmushidan bir "Haqiqat kimda?" ismli havosiz operalik roman yozg'an edim, o'g'urlatdim, bugunki, topilmaydir. Bundan buyong'i she'rlarim milliy va inqilobiy tuslarin ola boshladi."

1909-yilda Buxoroga arab tilini mukammal o'rganish uchun borgan Hamza shialar janjali tufayli Kogon matbaasida bir oy ishlab, Toshkentga

keladi. Jadidlar bilan aloqaga kirishib, milliy anjumanlarda qatnashadi. 1910-yildan uning maorif yo'lidagi faoliyati boshlanadi. Qashqar darvoza mahallasida usuli savtiya maktabini ochadi. 1911-yilda xuddi shunday maktabni Qo'qonda tashkil qilib, bir yil muallimlik qiladi.

Ibn Yashin o'g'li Hamza musulmon edi. Shuning uchun ham yeyar-icharidan qisib-qimtinib 50 so'm to'playdi va muborak Haj safariga o'tlanadi. "Afg'oniston, Hinduston, Makka, Madina, Shom, Beyrut bilan sayohat qilib, Stambulg'a o'qishga keldim". Tarjimai holda Turkiyada o'qigani haqida ma'lumot yo'q. Ammo "o'qishga keldim" degan so'zlariga e'tibor qilsak, Istambuldagi taraqqiyparvarlar bilan do'st bo'lgani, ular bilan suhbatlar qilgani, shu bilan birga ma'lum darajada saboq olganini anglash mumkin. "O'zim biletsiz qochib borg'an uchun, otam hamda bir rus qizidin uylang'an oilam yuborgan ochulik xatlaridan qo'rqub, qaytdim", deydi.

1914-yil oxirlarida Oxundiyning ko'magi bilan Marg'ilonda maktab ochadi. Bu maktab sakkiz oyga bormay yopiladi. Keyin Qo'qonda "yo'qsul bolalar uchun pulsiz o'qutush maktabi"ni tashkil etadi. To'rt oy o'tmay, bu ham tintuv o'tkazilib, yopiladi. 1915-yilda ochgan "G'ayrat" nomli bosmaxona, qiroatxona ham "1910-yildan beri" uning "majlis va maktablarig'a butun kuchi bilan qarshi turg'an boyvachcha unsurlar kirib qolib", asarlari "uyonda tursin", o'zini ham surub chiqaradilar. Uning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklari o'z davrining eng noyobi bo'lgan.

1917-yilgacha asar yozib, ularni chop etgan, matbuotda o'tkir maqolalar e'lon qilgan Hamza shu yil "Kengash" nomli jurnal chiqarib, unda ba'zi boylar, ulamolarni qattiq tanqid qiladi. "Kengash" ham ta'qibga uchragach, "Hurriyat" jurnali dunyo yuzini ko'radi. Bu ham ko'pga bormaydi.

"Maysaranning ishi", "Istibdod qurbonlari", "Feruzaxonim", "Ilm hidoyati", "Loshman fojiasi" kabi drama va komediyalar yozib, ba'zilarini o'zi tuzgan "Havaskor truppa"da sahnalashtirdi. O'zi ham rollar ijro etdi.

Shu tariqa Hamza Hakimzoda ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ko'rina boshlaydi. Adib Tohir Malikning yozishicha, jaholatga qarshi kurashgan Hamza Ahmad Zakiy Validiy To'g'on bilan do'st bo'lgan, u bilan birga xalq orasida targ'ibot-tashviqot ishlarni olib borgan. Validiy ham uni hurmat qilgan va Turkistondagi eng mashhur, faol siyosiy arboblardan biri, deb hisoblagan.

Hamza asarlari va matbuotda e'lon qilingan maqolalarini sinchiklab o'rgangan kishiga ma'lum bo'ladiki, u tom ma'noda yangilik tarafdori, jamiyat boshqaruvidagi mutelikka, fikrsizlikka, dindorlarning jaholatiga, bid'atga qarshi bo'lgan, Turkistonning necha yillardan beri qullikka mahkum etilganini qalban his qilgan va qayg'urgan. Uning "Muxtoriyat yoki avtonomiya" dramasi, "Turkiston Muxtoriyatini!" she'ri bejiz dunyoga kelmagan.

Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi, uning ham armonlari ushali edi. Bu voqeadan zo'r quvvat olgan Hamza "Ulug' Turkiston" gazetasining 1918-yil 98-sonida

2022-yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida Turkiston va jadidlarga bag'ishlab, tarixiy hujjatlar asosida mukammal asarlar yozayotgan adib Nabijon Boqiyning "Qizil toshbo'ron" nomli 540 sahifadan iborat tarixiy-hujjatli romani chop etildi. Bu kitob Hamza Hakimzoda Niyoziyning 40 yillik hayoti davomida ko'rgan-kechirganlari, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki, orzu-umidlari, qayg'ulari, asarlari, do'sti ham dushmanlari, shaxsi va tabiati haqida bitilgan. "Qizil toshbo'ron" Turkiston jadidlari safida o'zining mustahkam o'rni ega shaxs Hamza faoliyati bilan qiziqqan o'quvchilar uchun muhim bir manbadir.

"Turkiston muxtoriyatini!" nomli kattagina she'rini e'lon qiladi:

Butun Chingiz,
Temurdek shohlar arvohi
Dunyo yuzin titratkan askar sipohi
Qichqirub der: Turk o'g'li,
o'lmang siz sohi!
Qutlug' bo'lsun
Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub
islom millati!

Qichqirub der qurbonlar:
Ulug' Turkiston!
Unutmangiz, qonmangiz,
boqing qabrison;
Birlashingiz arab, turk...
Kobil, Hindiston!
Qutlug' bo'lsun
Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub
islom millati!

"Mana, bukun haqiqat, hurriyat vositasi bilan eski xoin va zolim, mustabid hukumati 50 yildan beri bo'yin, qo'l va oyog'imizga sezimsiz solub kelgan umrlik og'ur zanjirlarin ko'zga ko'rsatib yechdi, xalos qildi... Bu kun Ostroumov, Ilminskiy kabilarning tarbiyasida yashagan va aning maslakiga xizmat etuvchi, vatandagi o'z oramizdan chiqqan din xoinlarini xiyonatlarin haqiqat maydoniga otur. Nohaqlarni sharmanda va marnigun qilur", deb yozadi u.

Jadidlar otasi Ismoil G'aspirali vafot etganda "Dod qil davri falakdin, botdi xurshidi jahon", deb yozgan Hamza G'aspiralini o'zining ustozini deb bilardi. Turkistonning ilg'or ziyolisi, mashhur jadid Munavvarqorini "muhtaram ustozini oliy", "ma'naviy ota", deydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning quyidagi so'zlarini o'qigan kishi uning shaxsi haqida tiniqroq tasavvurga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz: "Agar bu ahvolda yashayversak, bir muddatdan so'ng bu bid'atlar orasida bir millat tug'ulub butun islom faqat ismi bor, jismi yo'q bir holg'a kelib qolur. O'zimizning bid'atlarig'a muftalo bo'lg'onimiz yetar, o'zimizdan keyingi avlodlarimizning xurshid saodatlarin zavolga yetkurmaylik va hozirdan bu dardlarning davosiga kirishub, chorasini izlayluk... Buning kabi bid'at va majusiyat odatlarini yo'q qilmaq uchun yolg'iz ikki kalima so'zni yaxshi tushunmaq lozim: o'qimoq va o'qimoq".

Akademik Naim Karimov "Yoshlik" jurnalining 1991-yil, 10-sonida "Hamzani kim o'ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori" nomli maqola e'lon qilgan. Hamzaning vafoti sabablari, uning dushmanlari, fojiali voqea guvohlarining ko'rsatmalari va ba'zi rasmiy maktublar bitilgan ushbu maqola bilan ijtimoiy tarmoqning ziyou.uz saytida tanishish mumkin.

Yurt ostonasi

Bugun yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyat va keng dunyoqarashga ega, har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'rtasida imzolangan "Yo'l xaritasi" asosida, 2023-yilda harbiylar hamda el suygan san'atkorlar, fan arboblari, yozuvchi va shoirlar ishtirokida tashkil etilgan "Ma'naviyat karvonlari" mamlakatimizning eng olis hududlarigacha kirib borib, sarhadlarimiz posbonlari va ularning oila a'zolari, mahalliy aholi vakillari hamda yoshlar ishtirokida keng qamrovli tadbirlar tashkil etilgan edi.

Yosh-u qariga birdek manzur bo'lgan ushbu tadbirlarning davomiyligini ta'minlash maqsadida joriy yilda respublikamiz bo'ylab "Vatan ostonasi" shiori ostidagi "Ma'naviyat karvonlari"ning safarlari rejalashtirilib, "Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharaflari burchdir!" hamda "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak!" mavzularidagi ma'naviy-ma'rifiy hamda vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazish ko'zda tutilmoqda.

Mart oyida yo'lga chiqqan ushbu karvonning dastlabki manzili Chegara qo'shinlari qo'mondonligi markaziy apparati bo'ldi. Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyat hamda an'analarga hurmat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida mazmunli suhbatlarga boy tarzda kechgan mazkur tadbirda O'zbekiston qahramoni, xalq artisti Munajat Yo'lchiyeva, O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori, O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Barno Qodirova, Turg'un Beknazarov, Alisher Otaboyev hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Bobur Bobomurod, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mutasaddilari ishtirok etdi.

Tadbir davomida o'qilgan vatanparvarlik, yurtga sadoqat va mehr-oqibatni tarannum

etuvchi she'rlar, ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ham barchaning qalbiga o'zgacha mamnunlik bag'ishladi. Chegara qo'shinlari ashula va raqs ansambli xonandalari Muhammadumar Isoqov, Mohim Abduhakimova va kichik serjant Sherari Madazimov ham harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari aks etgan ijod namunalari yig'ilganlar e'tiboriga havola etdilar.

O'tgan yili "Ma'naviyat karvoni" ishtirokchilari bilan birga mamlakatimizning juda olis hududlarida bo'ldik. Mahalliy aholi, ayniqsa yoshlar bilan uchrashib, ularning turmush tarzi, o'y-fikrlari, orzu-istaklari bilan tanishdik. Men teatr jamoamiz bilan birga juda ko'p hududlarda gastrol safarlarida bo'lganim uchun mamlakatimizda bormagan, ko'rmagan joyim qolmagan bo'lsa kerak, deb yurardim. Ammo sarhadlarimiz posbonlari va ularning oila a'zolari istiqomat qilayotgan olis hududlarda bo'lib, hali ko'rmagan joylarim juda ko'p ekanini tushunib yetdim. Borgan hududlarimizdagi yurt posbonlarining matonati-yu, shijoatini ko'rib, ko'nglim xotirjam bo'ldi. Ularning qalbiga quvonch ulashish uchun oz bo'lsa-da, o'z hissamni qo'shganimdan nihoyatda xursandman, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alisher Otaboyev.

Albatta, o'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar mamlakatimiz aholisi, ayniqsa chegarao'ldi hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlarimizni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularning ma'naviy olamini yanada boyitib, asl vatanparvarlar sifatida voyaga yetishlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

**Mayor
Farida BOBOJONOVA**
DXX Chegara qo'shinlari



Bellashuv

"Men vatanparvarman"

Olis hududlardagi umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan o'tkazilayotgan "Men vatanparvarman" loyihasining Navoiy viloyati bosqichi bo'lib o'tdi.

Uch kun davom etgan tadbirlarda Uchquduq tumanidagi "Qulquduq", Tomdi tumanidagi "Ayaqquduq" va Zarafshon shahridagi "Daugiztau" ovullaridagi o'quvchi-qizlar ishtirok etdi.

Dastlab Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya va IIV Qorovul qo'shinlari ayol harbiy xizmatchilari hamkorligida o'quvchi-qizlarning vatanparvarlik, xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosidan faxrlanish, qonunlarga hurmat, huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik ruhida nazariy va amaliy bilimlari bir oylik dastur asosida yanada boyitildi.

Shundan so'ng ular "Vatanparvarlik mening tasavvurimda" shiori ostida

o'z bilimlarini namoyon etishdi.

Qatnashchilarning ko'rgazmali chiqishlari, badiiy sahna ko'rinishlari, ijod namunalari, ayniqsa ularning yuz-ko'zlarida ufurib turgan Vatanga muhabbat hissi barchaning e'tiborini tortdi.

Jarayonda qatnashgan Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjaye tomonidan o'quvchi-qizlarning mahorati va bilimlari e'tirof etilib, g'olib va sovrindorlarga "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori kubogi", diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

Adliya polkovnigi Jo'rabek O'RINOV,
Navoiy harbiy prokurori

Chizgi

...Vatan ortda qoldi. Daryoning narigi tarafida qoldi. Undan jonlarini xatarga qo'yib qochdilar. Ana shu qochishda kimlaridir Amudaryo suvlari o'z bag'riga tortib oldi, go'dak demadi, keksa, ayol deb ajratib o'tirmadi...

O'shanda bir necha kunlik chaqaloq bo'lgan go'dak to'rt-besh yoshga kirib qoldi. Hech kim to'yib ovqat yemasdi. Kattalarning suhbatlari Vatan haqida kechsa, hammaning ko'zida yosh aylanardi. Bolakay ularni tinglab, Vatan juda yaxshi bir narsa ekanini angladi. Juda totli bo'lsa kerak. Kattalardan so'radi: "Vatan qayerda?" Unga cheksiz dashtliklar tomonni ko'rsatishdi. O'sha tomonni aniq eslab qoldi. Tongda yo'lga chiqadi. Vatanni olib keladi. Kattalar bir sevinisin. Avval o'zi to'yib-to'yib yeb oladi, keyin boshqalarga keltiradi.

Ertalab yo'lga chiqdi. Dasht quyoshi shafqatsiz edi. Bola chanqadi, charchadi, qo'rquv bosdi. O'tirib yig'ladi. Vatan ko'rinmasdi. U o'rnidan turib boshi oqqan tomonga yurib ketdi. Keyin holsiz o'tirib qoldi... Uni kattalar shu holida topdilar. Onasi zor yig'lab, bag'riga bosdi: "Axir g'uribatda yurganimiz kammidi, nega bunday qilding?" "Vatanni izlab ketdim, uni sizlarga olib kelmoqchiydim..."

Buni eshitib kattalar ham yig'lab yubordilar.

Bu o'tgan asrning o'ttizinchi yillar xotiralari. Ayni kunda Turkiyada yashayotgan vatandoshimiz, ijodkor Sobir Sayhuning bolalik xotiralaridan bir shingil. Kexsa vatandosh o'sha kunlarni eslab ko'zlariga yosh olgandi. Keksalarning ko'zyoshi juda og'ir...

O'sha kuni u yurtimizda nashr qilingan kitobini hadya qildi. Kitob muqovasida yashil kengliklarda charx urayotgan qaldirg'ochlar tasvirlangan. Ularning ayrimlari kenglikdan tashqarida, muqovadan chiqib ketayotgandek edi. Qariya yashil kengliklardagi qaldirg'ochlarni qo'li bilan ko'rsatib: "Bular siz, tashqarisidagi bizmiz, qanchalar baxtivor ekanligingizni bilsangiz edi..." degan edi o'kinch-la.

Toshkent haqida yozgim keladi. Bu shaharni sevaman. O'ziga xos tomonlari ko'p. Uzoq ko'rmasam, sog'inib qolaman. Eng



go'zal xotiralarim, yoshligim, onalik, farzandlar quvonchi shu muazzam shahar bilan bog'langan.

Toshkent haqida yozgim keladi. Bu ulkan ishga qo'l urish uchun yozishning o'zi kamlik qiladi. Musavvir bo'lishing kerak. Xilma-xil ranglarini,

hatto ohanglarini ham ilg'ash, qog'ozga tushirish oson emas. Uning betakror qiyofasini tasvirlashda so'zlar kamlik qiladi. Shahar qalbi... beorom, bedor, uyg'oq qalbi uchun so'z topish naqadar mushkul.

Toshkent haqida yozgim keladi. Ammo qo'limdan

kelmaydi. Men uni tanita olmaslikdan cho'chiman. Yozuvchi, musavvir Alisher Mirzodan keyin bu ulkan ishga o'zimni haqli deb bilmayman. Biroq bu unga bo'lgan muhabbatimni zarracha kamaytirmaydi.

Rassom emasman. Vatanning tasvirini ko'zlarimda qolgan manzaralar, aziz manzillar bilan ko'rsata olganimda edi. Afsus.

Vatan tasviri ham o'zgarib turadi. Avval bu bola-baqraga to'la katta xonadon edi. Keyin... ortingdan mung'ayib qoladigan, yo'l qarab tolmaydigan, yuzlarida xotiralar taram-taram izlar qoldirgan, sochlari qordek chol-kampirga aylandi. Qiziq, qachon bu tarzda o'zgarib ketdi? Bilolmay ham qoldim. Yillar yeldirim. Tasvir yana o'zgardi: yelkalari bukik qariya, yolg'iz.

Keyin... Shovullagan daryo yoqasidagi qabriston. Bir uyum tuproq. Bir aziz manzil. Bu manzil, bu qadrlı tuproqlar jonim qadar aziz!

Bu tasvirning nomi – VATAN!

Inobat IBROHIMOVA, "Vatanparvar"

Ma'naviyat

Jadidlar – millat fidoyilari

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi bilan hamkorlikda "Jadidlar – millat fidoyilari" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Unda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor Hasanov, O'zbek Milliy akademik drama teatri aktrisasi, jadidchilik harakati namoyandasi Abdulla Avloniyning evarasi, O'zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova, "Jadid" adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy gazetasi bosh muharririning birinchi o'rinbosari Humoyun Akbarovning mavzuga oid ma'ruzalari va xotiralari tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

– O'tgan asr boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy sharoitda milliy ozodlik, uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari bilan maydonga chiqqan ma'rifatparvar ajdodlarimiz o'zlarining benazir salohiyati, noyob insoniy fazilatlarini bilan fidoyilik va jasorat namunasini ko'rsatdilar, – deydi Gavhar Zokirova. – Ularning tabarruk xotirasini e'zozlash, boy merosi, ibratli faoliyatini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi ma'naviy uchrashuv men uchun yoshlar bilan samimiy muloqot tarzida o'tgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Ularning yoniq ko'zlari, tariximizga nisbatan yuksak hurmat va qiziqishlari tahsinga loyiq. Jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatining mana shunday ko'rinishdagi targ'iboti shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

Tadbir so'ngida jadidchilik harakati namoyandalarning hayoti va faoliyatini yorituvchi "Armon" hujjatli filmi namoyish etildi.

Malaka

Yangi kuch, yangi harakat

Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlarining Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" shiori ostidagi malaka oshirish kurslari tashkil etildi.



Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishni qamrab olgan jami 32 soatlik o'quv kursi davomida ofitserlarga "Bugungi dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasi", "Ma'naviy targ'ibot ta'sirchanligini oshirish yo'llari", "Kasbiy faoliyatda nutq madaniyati va notiqlik san'atining o'rni", "Jadidchilik harakati namoyandalarning millat va ma'naviyat ravnaqiga qo'shgan hissasi" kabi mavzularda professor-o'qituvchilar tomonidan dars mashg'ulotlari olib borildi.

– Tashkil etilgan malaka oshirish kursi biz uchun har bir mavzu ko'lamining kengligi hamda mutaxassislar tomonidan chuqurlashtirilgan holda tushuntirib berilgani bilan alohida ahamiyat kasb etdi, – deydi o'quv kursi tinglovchisi leytenant Mirabbos Otaqulov. – Bundan tashqari, o'z bilim va ko'nikmalarimizni boyitgan holda, so'nggi ilmiy tadqiqot va izlanishlardan boxabar bo'ldik. Bu yerda orttirgan ko'nikmalarimizni shaxsiy tarkib bilan ishlash jarayonida tatbiq etamiz, ularga ham o'rgatib boramiz.

Malaka oshirish kursi tinglovchilari Qurolli Kuchlar davlat muzeyida bo'lib, u yerdagi eksponatlar va ularning tarixi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

O'quv kursi yakunida tinglovchilarga maxsus sertifikatlar topshirildi.



“PARIJ – 2024”

SARI ODIMLAR



Poytaxtimizdagi ko'p tarmoqli "Humo arena" sport majmuasida dunyoning eng yetakchi dzyudochilari ishtirokida "Katta dubulg'a" turniri bo'lib o'tdi. "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga muhim reyting ochkolarini taqdim etuvchi bellashuvlarda hamyurtlarimiz 2 ta oltin, bitta kumush va 3 ta bronza, jami 6 ta medalga sazovor bo'lishdi. Sovrindorlar safidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o'rin oldi.

Avvalo shuni ta'kidlash joiz, mamlakatimizda o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalar nufuzi dunyo miqyosida yildan yilga oshib, yangicha sifatlarni o'zida mujassam etmoqda. Xususan, yurtimizda o'tkazilgan dzyudo bo'yicha avvalgi "Katta dubulg'a" turnirida 49 ta mamlakatning 370 nafarga yaqin sportchisi qatnashgandi. 2024-yilgi turnir 70 ga yaqin mamlakatning 500 ga yaqin vakili ishtirokida kechdi. Bu Xalqaro dzyudo federatsiyasi vakillari, 68 mamlakat sportchilari, 100 nafarga yaqin murabbiy va mutaxassislar, hakamlar, rasmiy mehmonlar ishtirokida tashkil etilgan Toshkent "Katta dubulg'a" turnirining ochilish marosimida ham ta'kidlandi. Mazkur tadbirlarni onlayn tarzda dunyoning turli burchaklaridagi muxlislar ham kuzatib borishdi va dzyudo sportining shodligidan bahramand bo'lishdi. Ochilish marosimida Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) bosh direktori Vlad Marinesku, Osiyo olimpiya kengashi vitse-prezidenti Otobek Umarov ishtirok etdi va turnir davomida sport jurnalistlari bilan qilgan muloqotlarida Toshkentda uchinchi bor o'tkazilgan "Katta dubulg'a" turnirining xalqaro maydondagi ahamiyati, o'zbek sportining dunyodagi mavqeyi xususida so'z yuritishdi. Toshkent jahon dzyudosining markazlaridan biriga aylaniy borayotgani, o'tayotgan shiddatli bellashuvlar sportchilar uchun "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarining reyting ochkolarini taqdim etishi bilan qadrlil ekanini ta'kidlandi.

IJF reglamenti bo'yicha mezbon davlat har bir vazn toifasida 4 nafardan, boshqa ishtirokchi mamlakatlar esa 2 nafardan sportchisini turnir ro'yxatidan o'tkazishi mumkin. Terma jamoamiz bosh murabbiyi Ilias Iliadis boshchiligidagi mutaxassislar va sportchilarimiz bu imtiyozdan unumli foydalanishdi. 1–3-mart kunlari o'tkazilgan Toshkent "Katta dubulg'a" turnirida 28 nafar erkak va 25 nafar ayol, jami 53 sportchi yurtimiz sharafiga himoya qildi. Yil boshida 2 ta yirik turnirda oltin medalni qo'lga kiritgan MVSM vakili Diyora Keldiyorova terma jamoamiz tarkibiga kiritilmadi. Murabbiylar shtabi -52 kg vazn toifasida jahon reytingida peshqadamga aylangan armiyamiz sportchisiga bu safar dam berishga qaror qildi.

Dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Doston Ro'ziyev Toshkent "Katta dubulg'a" turnirida hamyurtlarimizning ilk medaliga mualliflik qildi. Sportchimiz -60 kg vazn toifasida kechgan final bahsida jahon chempionati sovrindori, gruziyalik Giorgi Sardalashvilini mag'lubiyatga uchratib, oltin medalga sazovor bo'ldi.

Terma jamoamiz hisobiga ikkinchi oltin medalni MVSM vakili Muzaffarbek To'raboyev (-100 kg) tortiq etdi. Jahon chempioni, "Masters" turniri va Osiyo

o'yinlari g'olibi finalda neytral maqomda kurashgan Matvey Kanikovskiy mag'lubiyatga uchratdi. Shu tariqa, u ham Doston Ro'ziyev kabi jahon va "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari reytingi uchun 1000 ochkoni o'z hisobiga qo'shib qo'ydi.

Toshkent "Katta dubulg'a" turniri dzyudomizdagi yangi nomlarni kashf etdi. Jumladan, -52 kg vazn toifasida tatamiga chiqqan Gulhayo Jo'rayeva musobaqa yakunida "bugungi kun qahramoni"ga aylandi. Gulhayo faqat final bahsida fransiyalik Amandin Busharga imkoniyatni boy berib, faoliyatida ilk bor kattalar o'rtasidagi yirik musobaqaning kumush medaliga sazovor bo'ldi.

O'z vazn (-90 kg) toifasi bo'yicha IJF reytingida uzoq muddat peshqadamlik qilgan "Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarining bronza medali sohibi, jahon chempioni Davlat Bobonov uchun o'tgan yilgi mavsum biroz omadsiz yakunlangan, ya'ni kutilmagan



jarohat uning bu yilgi mavsum boshidagi turnirlarda qatnasholmasligiga olib kelgandi. Endi jarohatdan forig' bo'lgan MVSM vakili yana bir bor "Katta dubulg'a" musobaqasi sovrindoriga aylandi. -90 kg vazn toifasida bellashgan Bobonov 3-o'rin uchun bahsda kubalik Ivan Moralesni 16 soniyadayoq mag'lub etdi va turnirning bronza medali bilan taqdirlandi. Shu tariqa Bobonov "Katta dubulg'a" turkumiga kiradigan musobaqalardagi medallari sonini 9 taga yetkazdi.

Hamyurtimiz Shahram Ahadov (-73 kg) ham bronza medalini qo'lga kiritdi. Yurtdoshimiz 3-o'rin uchun kechgan bahsda neytral atlet maqomida kurashgan raqibidan ustun kelib, o'z hisobiga beshinchi marotaba "Katta dubulg'a" tasnifidagi musobaqaning medalini rasmiylashtirdi. -73 kg vazn toifasida kurashgan yana bir sportchimiz Obidxon No'monov ham bronza medaliga sazovor bo'ldi. Shu tariqa Bobonov, Ahadov va No'monov o'z hisoblariga jahon va "Parij – 2024" reytingi uchun 500 ochkoni qo'shib qo'yishdi. Ayollar o'rtasida bronza medaliga da'vogarlik qilgan MVSM vakili Gulnoza Matniyazova (-70 kg) esa niderlandiyalik Margit de Vugtga yo'l bergan tarzda "Parij – 2024" Olimpiadasining reyting ochkosini qo'lga kiritish bilan kifoyalandi. Shuningdek, Olimpiya o'yinlari reyting ochkolarini o'ynalغان mazkur turnirda o'z vaznlarida saralash bellashuvlarini muvaffaqiyatli o'tkazib, yarim finalgacha yetib kelgan hamyurtlarimiz – Shohruxxon Baxtiyorov, Dilshodbek Baratov, Sardor Nurillayev, Murodjon Yo'ldoshev, Rustam Shorahmatov, O'tkirbek To'raboyev va Alisher Yusupov Xalqaro dzyudo federatsiyasi reytingi uchun muhim ochkolarni jang'ardi. Jahonning kuchli dzyudochilari bilan bellashuvlar asnosida tajribalari oshdi.

Shu tariqa dunyoning eng sara dzyudochilari ishtirokida kechgan IJF tasnifidagi Toshkent "Katta dubulg'a" musobaqasida hamyurtlarimiz 2 ta oltin, bitta kumush va 3 ta bronza, jami 6 ta medalga sazovor bo'lishdi. Bu natija bilan dzyudochilarimiz Fransiya (3 ta oltin, 2 ta kumush, bitta bronza) va Yaponiya (2 ta oltin, 3 ta kumush, 6 ta bronza) terma jamoalaridan keyin umumjamoahisobida 3-o'rinni egalladi.

PROFESSIONAL BOKS



AQShning Orlando shahrida "Matchroom Boxing" va "DAZN" hamkorligida professional boks oqshomi o'tkazildi. Yarim o'rta vazn toifasidagi bokschimiz Shahram G'iyosov meksikalik Pablo Sezar Kanoga qarshi jang o'tkazib, professional ringdagi o'zining 15-g'alabasiga erishdi. Ushbu g'alaba G'iyosovni WBA kamari da'vogariga ham aylantirdi. Janubiy Koreyaning Puchxon shahrida tashkil etilgan boks oqshomida esa hamyurtimiz Faryozbek Do'smatov professional boksdagi debut jangini filippinlik Jover Amistosonga qarshi o'tkazdi va 1-raundidayoq raqibini nokautga uchratdi.

GANDBOL



Poytaxtimizda gandbol bo'yicha "IHF Trophy" turnirining qit'alararo bosqichi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston "U20" jamoasi bosh sovrinni qo'lga kiritdi. Terma jamoamiz finalda Buyuk Britaniya termasiga qarshi o'ynadi va 33:23 hisobida g'alaba qozonib, oltin medal bilan birga ushbu yosh toifasidagi jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. 18 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston terma jamoasi esa bronza medal uchun kechgan bellashuvda Yangi Kaledoniya ustidan 24:18 hisobida zafar quchdi va shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy oldi.

STOL TENNIS



Jazoirda bo'lib o'tgan stol tennis bo'yicha "WTT Youth Contender" musobaqasida yosh tennischilarimiz muvaffaqiyatli qatnashdi. Jumladan, Amir Shiriyev 11 yoshgacha bo'lganlar toifasida, Adelina Hasanova "U13" yo'nalishida barcha raqiblarini yengib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Asel Yerkebayeva esa musobaqa (U15) finaligacha yetib bordi va kumush medalga sazovor bo'ldi. 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan sportchilar o'rtasida kechgan ushbu musobaqada yosh sportchilarimizdan yana 5 nafari bronza medal sohibiga aylandi.

VELOSPORT



Turkiyaning Alaniya shahrida velosportning shosse yo'nalishi bo'yicha "International Alanya Castle Criterium" poygasi o'tkazildi. Musobaqaning ayollar o'rtasidagi guruh poygasida ishtirokchilar 29 km masofada o'zaro raqobatlashdi. Yakunda O'zbekiston terma jamoasining ikki nafar vakili shohsupaga ko'tarildi. Terma jamoamiz a'zosi Yekaterina Knebleva marraga 47 daqiqada 11 soniyada birinchi bo'lib yetib keldi va oltin medalni qo'lga kiritdi. Yevgeniya Golotina esa 47 daqiqada 19 soniyada belgilangan masofaga yetib kelgan holda bronza medalga ega chiqdi.

BOKS



Butun jahon boks assotsiatsiyasi (WBA) fevral oyi yakunlari bo'yicha bokschilarining yangilangan reytingini e'lon qildi. Ushbu reytingdan 7 nafar charm qo'lqop ustamiz o'rin egalladi. Bokschilarimizdan Murodjon Ahmadaliyev, Otobek Xolmatov, Shahram G'iyosov va Isroil Madrimov reytingda o'z vazn toifasi bo'yicha birinchi o'rinda qayd etilgan bo'lsa, minimal vaznda jang o'tkazayotgan Hasanboy Do'smatov ikkinchi, super o'rta vazndagi bokschilar orasida Bektemir Meliqo'ziyev beshinchi, super yengil vaznda Botir Ahmedov yettinchi pog'onada qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab, harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida spartakiada o'tkazildi.

MAHORAT MALIKALARI BAHSI



Musobaqaning Qurolli Kuchlar akademiyasida bo'lib o'tgan tantanali ochilish marosimida so'z olganlar qo'shinlarda bu kabi bellashuvlarning sport o'yinlari turlarini yanada rivojlantirish, harbiy xizmatchi ayollarning jismoniy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tdi.

Musobaqada 120 dan ortiq harbiy xizmatchi ayollardan tarkib topgan 11 ta jamoa sportning 10 ta turi bo'yicha kuch sinashdi. Mahorat va nafosat malikalari suzish, voleybol, o'q otish, arqon tortish, estafeta yugurish (800, 400, 200, 100 metr), stol tennis, badminton, darts, shaxmat, shashka kabi sport turlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Qurolli Kuchlar akademiyasi va Mudofaa vazirligi sport majmualarida o'tkazilgan musobaqa qizg'in



va murosasiz pallalarga boy tarzda o'tdi. Xususan, qur'a tashlash yo'li bilan olimpia tizimida o'tkazilgan stol tennis bahslari ikki partiyadan iborat bo'lib, 11 ochkogacha o'ynaldi. Badminton o'yinida esa g'olibni aniqlash uchun bir partiya kifoya qildi va unda maksimal 30 ochkogacha jamg'arish imkoniyati berildi.

50 metr masofaga suzishda har bir jamoadan bir nafardan vakil qatnashdi. Suzish yo'lagi bo'ylab eng tez va chaqqon

harakatlangan sportchilar marra chizig'iga raqiblaridan oldin yetib kelib, o'z jamoasiga yuqori ochkolarni taqdim etdi. Shaxmat va shashka bahslarida bir nafardan sportchi dona surib, "aql gimnastikasi" bobida bir-biridan qolishmasligini namoyon etdi.

Darts musobaqasida sportchilarga uch marotaba uch donadan ulotirish imkoniyati berildi. Kalashnikov avtomatidan o'q otish mashqida ishtirokchilar

3 daqiqalik vaqt mobaynida yotgan holatda nazorat uchun berilgan 10 ta o'qni mo'ljalga oldi.

– Jamoalar o'rtasida kechgan raqobat har yilgidan yuqori darajada o'tdi, – deydi musobaqa bosh hakami o'rinbosari podpolkovnik Davlat Vahobov. – Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy okruglar, markazga bo'ysunuvchi harbiy qismlar va oliy harbiy ta'lim muassasalaridan jami

11 ta terma jamoa bellashgan ushbu musobaqaning voleybol bahslari, ayniqsa qizg'in kechdi. Dastlab jamoalar to'rtta guruhga bo'lindi. Guruh va chorak final o'yinlari bir partiyadan davom etib, 25 ochkogacha o'ynaldi. G'oliblik shohsupasiga da'vogar jamoalar o'rtasida o'tkazilgan hal qiluvchi uchrashuvlar sport muxlislarining e'tiborini o'ziga tortdi. Musobaqaning so'nggi kunida Qurolli Kuchlar akademiyasida arqon tortish hamda estafeta yugurish (800, 400, 200, 100 metr) bahslari peshqadamlari aniqlandi. Fursatdan foydalanib, harbiy ayollarni bayram bilan qutlab, sport bilan hamisha hamroh bo'lishlarini tilayman.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida 1-o'rinni Toifalangan obyektarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasi egalladi. 2-o'rinni Qurolli Kuchlar akademiyasi vakillari qo'lga kiritgan bo'lsa, 3-o'rin Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga nasib etdi. Shohsupaga ko'tarilgan uchala jamoaga kubok, diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Shuningdek, har bir sport turi bo'yicha yakkalik hisobda o'rinlar aniqlanib, g'oliblar munosib taqdirlandi.

Spartakiadaning "Eng namunali jamoa" nominatsiyasida Sharqiy harbiy okrug, "Eng faol jamoa" nominatsiyasida Mudofaa vazirligi Markaziy aloqa uzeli hamda "Eng nafis libosdagi jamoa" nominatsiyasida Toshkent harbiy okrugi harbiy xizmatchi ayollari rag'batlantirildi.

Tantanali taqdirlash marosimidan so'ng Mudofaa vazirligi Markaziy ashula va raqs ansamblining konsert dasturi barchaga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**



Maqsadga erishmaguncha taslim bo'lmayman!

MAG'LUBIYAT MOTIVATSIYA BERADI

Menga musobaqalarda yutqazib qo'yganimga alami ko'proq motivatsiya beradi. 2022-yili Toshkentda bo'lgan jahon chempionatida raqibimga yutqazib qo'ydim. Keyin Boku va Abu Dabi shaharlarida bo'lib o'tgan "Katta dubulg'a" turkumiga kiruvchi xalqaro musobaqada birinchi va ikkinchi o'rinlarni qo'lgan kiritdim. Buning tag zamirida esa Vatanimda bo'lib o'tgan musobaqada mag'lub bo'lganimning alami bor edi. Va men alamimdan chiqdim. Dzyudo sport turida Olimpiada yo'llanmasi uchun reyting ballari yig'ib boriladi. Bu yil yanvar oyida Portugaliyaning Odivelash shahrida bo'lib o'tgan Gran-pri musobaqasida oltin medal bilan birga, 700 ochkoni naqd qildim. Fevral oyida Bokuda bo'lib o'tgan "Katta dubulg'a" musobaqasida oltin medal va 1 000 ochkoni yig'ishga muvaffaq bo'ldim. Umumiy yig'ilgan reyting ballari kuchli o'n oltilikka kirgan sportchilargina nufuzli musobaqa yo'llanmasini qo'lga kiritadi. 2024-yilgi Olimpiada ishtirokchisiga aylanish uchun yutqazishga haqqim yo'q.

Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanida tug'ilib-o'sgan Diyora bugun butun dunyo taniydi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Dzyudo bo'yicha o'z vazn toifasida yuksak muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan qahramonimiz 6 yoshidan boshlab sport bilan shug'ullanib keladi. "Sport hayotimning bir bo'laki", deydi Diyora. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchisi kichik serjant Diyora Keldiyorova allaqachon professional sportda o'z o'rniga ega bo'lib ulgurgan. Hatto 2021-yili Antaliya shahrida bo'lib o'tgan "Katta dubulg'a" turkumiga kiruvchi musobaqada oltin medalni qo'lga kiritib, shu paytgacha o'zbekistonlik dzyudochi qizlar zabt etolmagan natijani qayd etgan holda tarix zarvaraqalaridan joy oldi.

BUVIMGA RAHMAT AYTAMAN!

Birinchi ustozim Xurshida Xalikova bo'ladi. O'smirlik chog'larimda qarindosh-urug'lar, qo'shnilar tomonidan qarshiliklar bo'lgan: qiz bola uchun sport shartmas, turmush va oila qurish birinchi o'ringa turadi, deb gapirishgan. Ammo yonimni olib, xohish-istaklarim bilan qiziqqan inson buvim bo'lgan. Aslida buvim ham yoshligida kurashchi bo'lishni xohlagan ekan. Ammo uning yonini oladigan, unga yo'l ochib beradigan inson bo'lmagani uchun armonga aylangan orzusini menda ko'rishni istardi. Va bu o'z samarasini berdi. Buvimning sa'y-harakatlari tufayli kichkina qishloqdan jahon arenalariga chiqib bordim.

FAQAT VA FAQAT OLG'A!

Yigirma yildan ortiq umrimni sportga bag'ishladim. 2015-yil musobaqada jarohat olib yarim yil reabilitatsiya markazida davolanishga majbur bo'ldim. O'tgan yarim yillik vaqt hayotimda juda katta burilish yasay oldi, desam, xato bo'lmaydi. O'tgan vaqtni sarhisob qilish va kelajakni rejalashtirish uchun yetarlicha imkon bo'ldi. Juda ko'p o'yladim, xulosam shu bo'ldiki, maqsadimdan og'ishim uchun asos yo'q. Faqat va faqat olg'a intilishim kerak. Shundagina biror natijaga erishaman. Sinovlar inson irodasini toblar ekan. Men nafaqat jismoniy chinqish, balki ruhiy quvvat ham kerakligini ana o'sha payt tushunib yetdim. Irodasi mustahkam inson hech qachon yengilmaydi. Mag'lubiyat bo'lishi mumkin. Ammo irodali inson qayta turish uchun o'zida kuch topa oladi.

HARBIY XIZMAT VA SPORT

Bugun O'zbekiston armiyasining salohiyati va qudrati mustahkam. Buni harbiylarimizning xalqaro musobaqalarda erishayotgan muvaffaqiyatlaridan ko'rish mumkin. Shunday professional bilan bir safda bo'lish esa insonga sharaflar bag'ishlash bilan bir qatorda, juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Harbiy sportchi sifatida faoliyat boshlaganimga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, bunday katta ishonchga loyiq ko'rilganimdan faxrlanaman. Lekin to'g'risini aytaman, men hech qachon harbiy libos kiyishni xayolimga keltirmagan edim. Birinchi navbatda, qiz bola bo'lganim uchun harbiy sportchi bo'lish mumkinligini o'ylab ham ko'rmagandim. Ammo hayot tufalari kutilmaganda kelar ekan.

TAKTIKA JUDA MUHIM

Yirik musobaqalardan oldin qur'a tashlash marosimi bo'ladi. Qaysi davlat vakili bilan tatamiga tushishim musobaqadan bir kun oldin ma'lum bo'ladi. Lekin menga buning umuman qizig'i yo'q. Aniqrog'i, qiziqmayman, chunki murabbiylarim o'sha sportchi haqida ma'lumot yig'ib, musobaqaga chiqishimdan oldin menga aytishadi. Ma'lumot deganda nimani nazarda tutyapman, har bir sportchining ko'p qo'llaydigan "priyom"i bo'ladi. O'sha "priyom"lardan ehtiyot bo'lishim haqida ogohlantirishadi. Murabbiylarimning qo'llaydigan taktikalari asosida ko'pgina xalqaro musobaqalarning g'olib va sovrindori bo'lib kelyapman. Shuning uchun aytamanki, sportda taktika juda muhim. Aslida sport, ayniqsa yakkakurash yo'nalishida soniyaning o'ndan bir ulushida masala hal bo'lishi mumkin. O'sha lahzadan kim oqilona foydalana olsa, g'oliblik o'shanga nasib etadi. Buni qisqa qilib, "omad" deb atashadi. Sportda kuchli va kuchsiz degan tushunchalar bor. Ammo raqibga hech qachon past nazar bilan qarab bo'lmaydi. Boya aytganimgdek, soniyaning o'ndan bir ulushida masalani o'z foydasiga hal qilib ketgan kuchsiz sportchilarni ko'rganman. Shuning uchun sportda doimiy sergaklik, hushyorlik va taktika juda muhim.

TANQIDLARDAN KUCH OLAMAN

Katta sportda bo'lish - bu doim elning nazaridasiz degani. Shuning uchun xato qilmaslikka harakat qilaman. Ammo g'oliblik bor ekan, mag'lubiyatlar bo'lishi tabiiy. Mag'lubiyatlar sportchiga tajriba beradi. Mag'lubiyatsiz sportchi tajribasiz sportchi degan bo'lardim. Men ham insonman, menda ham yurak bor. Stress, depressiyaga tushishim, hayajonlanishim, hayratlanishim, xato qilishim mumkin. Afsuski, mening bir-ikki xatolarimni ko'rib, xulosa qiladiganlar bor ekan. Ayniqsa, Toshkentda bo'lib o'tgan jahon chempionatidagi mag'lubiyatimda ko'p holatlarning guvohi bo'ldim. Qancha tanqidlar, sportdan ketishimni istaganlar bo'ldi. Ularga aytardimki, xolis baho berish uchun tanganing ikkinchi tarafini ham ko'rishingin. To'g'ri, muxlislar va vatandoshlar uchun natija muhim. Bilasizmi, noo'rin tanqidlardan ko'ngil ranjiydi. Biroq to'g'ri tanqidlardan kuch olaman. O'zimga bo'lgan ishonchim ortadi. Va men barchasini bundan-da, yaxshilashga harakat qilaman.

BIR KUN BIR OYGA TENG

Sportchining kun tartibi juda tig'iz. Bir yillik kalendar ish rejasi bilan ishlaymiz. Asosiy vaqtimiz mashg'ulotlar bilan o'tadi. Aksariyat kunlarimni xorijda o'tkazaman. Xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik jarayonlarining aksariyati o'sha davlatning o'zida bo'lib o'tadi. Iqlimiga moslashish, taomlari, havoning namligi, dengiz sathidan qanchalik balandligi kabi omillar natija uchun kurashishda muhim omil sanaladi. Agar biz bir kun mashg'ulotlarni qoldiradigan bo'lsak, bir oy orqaga qarab ketamiz. Shuning uchun hech qachon "progul" qilishga haqqimiz yo'q. Chet davlatlarda yurgan kezarlarim Vatanim taomlarini qo'msayman. Biror davlatning ovqatlari biznikichalik mazali emas. Shunday paytlarda ovqat pishirishga imkonim bo'lmasa-da, mazali ovqatlarga baho bera olaman (kuladi). Yakkakurash bahslarida tatamiga chiqadigan sportchilarni bir narsa doim qiynaydi: vaznni maromida ushlab yurish. Buning uchun to'g'ri ovqatlanish ratsioniga rioya qilish kerak. Hozirga qadar 52 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida raqiblarim qarshisidaman. Yurtimning mazali taomlaridan bahra olmasdan, shu vaznni ushlab yurish osonmi?! (kuladi).



REJALAR...

Sportchi sifatida Olimpiada chempionga aylanish, ayol sifatida shirin-shakar farzandlarning onasi bo'lish. Harbiy xizmatchi sifatida milliy armiyamiz shonini yanada ko'tarish, xalqaro musobaqalarda Vatanim bayrog'ining balandlarda hilpirashiga o'z hissamni qo'shish niyatidaman. Bularning har biri amalga oshishi uchun bor kuch-g'ayratimni ayamayman. Menga umid bergan shunday tinch zaminda ulg'ayib kamol topayotganimdan faxrlanaman, g'ururlanaman. Men erishgan va erishayotgan yutuqlar, qishloq qizlariga motivatsiya bo'ladi. Men sabab ular ham amaliy harakatlarni boshlashgan bo'lsa, o'ylagan niyatlarim va tinimsiz harakatlarni zoye ketmagan deb bilaman.

"Vatanparvar" muxbiri
Sherzod SHARIPOV
yozib oldi.

Prokuror va yoshlar

So'ragan edingiz

Muammolar yechim topmoqda

Yurtimizda yoshlar bilan manzilli ishlashning yangicha tizimi hayotga tatbiq etilib, otaliqqa olingan yoshlar bilan alohida ishlash borasida muayyan tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Guliston harbiy prokuraturasi tomonidan Sirdaryo viloyati Boyovut tumanining 2-sektorida joylashgan Ma'naviyat mahallasida "Harbiy prokuror va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Shuningdek, tadbir davomida mehnat yarmarkasi

tashkil etilib, tumandagi va Shirin shahridagi mavjud bo'sh ish o'rinlari taklif etildi. Yoshlarning 7 nafariga monomarkazda o'qish, 4 nafariga esa o'zi tanlagan soha bo'yicha ishga kirish uchun yo'llanma berildi.

Bundan tashqari, muloqotlarda harbiy-akademik

litseylar, oliy harbiy ta'lim muassasalari va Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga o'qishga kirish tartibi haqida ma'lumotlar berildi.

**Adliya podpolkovnigi
Farrux JUMAYEV,
Guliston harbiy
prokurori**

HUQUQIY MASLAHAT



Savol: Harbiy pensionerlar va ularning oilasi gospitalda bepul davolanishi mumkinmi?

Javob: Harbiy xizmatining umumiy davomiyligi yigirma yil va undan ortiq bo'lgan sobiq kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar harbiy tibbiy muassasalarda bepul tibbiy ta'minot huquqidan foydalanadi.

Bu huquq harbiy xizmatining umumiy davomiyligi yigirma besh yil va undan ortiq bo'lgan katta ofitser va generallar tarkibidagi sobiq kontrakt

bo'yicha harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlariga ham tatbiq etiladi.

Harbiy xizmatning umumiy davomiyligi - kalendar va imtiyozli hisobdagi harbiy xizmatdan iborat bo'lib, harbiy xizmatchining ham chaqirilishi bo'yicha, ham kontrakt bo'yicha haqiqiy harbiy xizmatining jami vaqtini, shu jumladan haqiqiy harbiy xizmatga qaytadan kirishni o'z ichiga oladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
axborot xizmati**

Salomatlik

Suvchechak o'tkir yuqumli virusli kasallik bo'lib, asosan bolalar kasallanadi, lekin yoshligida og'rib o'tmagan katta yoshdagilar ham kasallanishi mumkin.

Suvchechak bilan kasallanish dunyoda keng tarqalgan bo'lib, gripp va o'tkir respirator kasalliklaridan keyingi o'rinni egallaydi. Kasallik uyushgan jamoalarda (maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari, shu jumladan harbiy qism va muassasalar) tez tarqaladi.

Suvchechak qo'zg'atuvchisi bo'lgan virus 1911-yilda braziliyalik shifokor E. Aragao tomonidan aniqlanib, fanda "Aragao tanachalari" nomini olgan. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, suvchechak gripp

SUVCHECHAK KASALLIGI HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?

va qizamiq kabi aholi orasida ommaviy tarqaluvchi, yuqumlilik darajasi yuqori bo'lgan kasallik bo'lib, qo'zg'atuvchisi tez tarqalishi bilan xavflidir.

Suvchechakning yagona kasallik manbaiy bemor odam hisoblanadi va havo-tomchi yo'li orqali sog'lom odamga yuqadi. Bemor odam kasallikning yashirin davrining oxirgi kunlarida va klinik belgilar paydo bo'lgan ilk kunlarida atrofdagilar uchun xavfli hisoblanadi.

Boshqa havo-tomchi yo'li bilan yuquvchi qo'zg'atuvchilardan (gripp va boshqa o'tkir respirator kasalliklari) farqli o'laroq, suvchechak qo'zg'atuvchisi bemordan ancha uzoq masofaga tarqala oladi. Virusning havo orqali qo'shni xonalarga osonlik bilan o'tishi tufayli u yerdagi odamlarga kasallik yuqishi mumkin. Bemor bilan sog'lom odamning bir xonada qisqa fursat ichida bo'lishi kasallik yuqishi uchun kifoyadir. Aholi orasida kasallikka qarshi emlash ishlari o'tkazilmasligi, virusning qisqa muddatda uzoq masofaga tarqalib, yoppasiga kasallanishni keltirib chiqarishi mumkinligi sababli suvchechak boshqarib bo'lmaydigan yuqumli kasalliklar toifasiga kiradi.

Suvchechak bilan kasallanishda mavsumiylik kuzatiladi.

Kasallanishning eng past ko'rsatkichlari yilning avgust-dekabr oylariga to'g'ri kelsa, fevral-may oylarida bu ko'rsatkichlar ko'tarilib boradi va aprel oyida eng yuqori nuqtasiga yetadi. Umuman olganda, kasallikning eng yuqori mavsumiy ko'tarilishi iliq geografik hududlarga to'g'ri keladi. Virus tashqi muhit ta'siriga chidamsizligiga qaramasdan, uyushgan jamoalarda epidemiya tarzida tarqalishi mumkin.

Kasallik yuqqandan so'ng uning belgilari ro'yobga chiqquncha bo'lgan davr, ya'ni yashirin davri 11-21 kunni tashkil qiladi. Suvchechak kasalligiga tana haroratining ko'tarilishi va terida yaqqol chegaralangan qizg'ish dog' va pufakchali toshmalar tashishi xosdir. Infeksiyaning kirish darvozasi yuqori nafas yo'llari shilliq pardasi hisoblanadi, qo'zg'atuvchi bu yerdan qonga o'tadi va teriga o'mashadi. Kasallikning birinchi kunlari tananing qorin, son, yelka, yuz va bosh sohasi terisida dog'lar paydo bo'ladi. Terida toshmalar



toshgandan so'ng bemor kasallik manbaiy sifatida xavf tug'dirmaydi.

Tana harorati 38 °C va undan yuqoriga ko'tarilgandan keyin dog'lar toshmalarga va ular esa pufakchalarga aylanadi. Oradan 1-2 kun o'tgach, pufakchalar yorilib, yarachalar paydo bo'ladi. Bemorni, ayniqsa teri qichishi bezovta qiladi. Ayrim bemorlarda toshmaning og'iz shilliq pardasiga, halqumga, hiqildoqqa, jinsiy a'zolariga va tananing boshqa joylariga tashishi juda noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Tana harorati ko'tarilishi, bemor ahvolining og'irlashishiga olib keladi, uyqu buziladi, ishtaha pasayadi, jahldor va injiq bo'lib qoladi. O'z vaqtida ko'rilgan davo choralari natijasida tana haroratining yuqoriligi 2-5 kungacha davom etadi, tanadagi toshmalar esa 8-10 kunda asta-sekin yo'qoladi.

Suvchechak ko'pincha yengil ko'rinishda kechadi, lekin immuniteti past bo'lgan shaxslarda tana haroratining ko'tarilishi, bemor ahvolining

og'irlashishiga olib keladi. Kasallik og'ir kechganda ko'pincha terida, og'iz bo'shlig'ida, tomoq, quloq, o'pka va buyrakda har xil asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Bemor barvaqt aniqlanib, shifoxona sharoitida samarali davolansa, kasallikning asoratlarini oldi olinadi. Kasallikdan tuzalgan kishilarda bir umrga barqaror immunitet hosil bo'ladi.

Kasallikning oldini olishda quyidagi chora-tadbirlarni o'tkazish tavsiya etiladi:

- umumiy va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish;

- ta'til va xizmat safaridan qaytgan harbiy xizmatchilarning tibbiy ko'rikdan o'tishini doim tashkil qilish;

- bemorlarni o'z vaqtida aniqlash va alohidalash;

- xonalarni tez-tez shamollatib turish;

- avval kasallanmagan va bemorlar bilan muloqotda bo'lganlarni 21 kun mobaynida kuchaytirilgan tibbiy nazoratga olish;


- bu davrda ularni so'rab-suriştirish, tana haroratini o'lchash, tana ko'rigidan o'tkazish.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilinishi, o'z vaqtida va sifatli olib borilishi kasallik shaxsiy tarkib orasida tarqalishining oldini oladi hamda asoratlarsiz kechishiga imkon beradi.

**Tibbiy xizmat katta
leytenant F. NIYOZOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi katta
vrach mutaxassisi,
tibbiy xizmat leytenant
R. ESHMAMATOV,
Qurolli Kuchlar Harbiy
tibbiyot akademiyasi
internatura tinglovchisi**

BAYRAM SOVG'ASI

Bayramga qanday sovg'a olsam ekan? Sizni shu savol qiynayaptimi? Sovg'a tanlash har doim qiyin masala bo'lgan, ayniqsa oluvchi ayol kishi bo'lsa. Umidsizlikka tushmang! "Vatanparvar" gazetasi bunda sizga yordam beradi. Avvalo, sovg'a tanlashga muhabbat bilan yondashing. Ishni boshlashdan oldin sovg'a bermoqchi bo'lgan kishingizning didi, fe'li, qiziqishlarini hisobga oling. Qimmat bo'lishi shart emas, muhimi uning ko'nglidan joy olishi. Hozirgi kunda narsalarning foydaliligi muhim ahamiyatga ega.



Oshxona jihozlari har qanday ayolni xursand qiladi. Bunda nafaqat oshxona buyumi, balki oshpazlik mahoratingizni ishga soling. Ovqat pishirish qo'limdan kelmaydi, deysizmi, hechqisi yo'q, ijtimoiy tarmoqlarda pazandachilik retseptlari juda ko'p.

Ayollar har qanday vaziyatda jozibali ko'rinishni istaydi. Chiroyli narsalarni sevadi. Xoh u kiyim, xoh qandaydir buyum bo'lsin, asosiysi, uning ko'nglidagi narsani topishingiz. Chiroyli ko'ylak, sumka, poyabzal, soch parvarishi uchun moslama, massajer ajoyib variant.

Har bir uy bekasi uydagi tartib-qoidani, tozalik va shinamlikni yoqtiradi. Agar unga yordam bersangiz, bu harakatingizni ayolingiz, albatta qadrlaydi. Hamma ayollarga g'amxo'rlik yoqadi. Havo namlantirgich, changyutkich, uy uchun turli jihozlar ularga ma'qul tushadi.

Konsert, teatr, kino, turli ko'rgazmalarga chipta, badiiy kitob sovg'a qilishingiz mumkin yoki shunchaki, u bilan sayrga chiqishingiz kunning mazmunli, esda qolarli o'tishiga yordam beradi.

Nima berishingizdan qat'i nazar mehr ulashing. Axir oiladagi ob-havo ularga bog'liq.

Bu borada sizga bir qancha g'oyalarni taklif qilmoqchimiz:

- zamonaviy sovg'a;
- oshxona buyumi;
- go'zallik va salomatlik uchun sovg'a;
- uy jihozlari;
- qalb uchun sovg'a.

Har qanday ayolni, hatto hech narsaga muhtoj bo'lmasa-da, kichik narsa bilan hayratga solish mumkin. Agar ayolingiz ijtimoiy faol bo'lsa, unga turli gadjetlar: planshet, telefon, soat, aqlli bilaguzuk kabi sovg'alar qadrlidir.

OLCHALI PIROG



Bunday shirinlikni tayyorlashda bekajonlarimiz muzlatib qo'yilgan olchadan foydalanishlari mumkin. Ishonamanki, o'zgacha mazasi bilan oila a'zolaringiz ko'nglidan joy oladi.

Kerakli masalliqlar:

xamiriga: 3 st un, 250 g margarin (qirg'ichdan chiqarib, un bilan aralastirib olamiz); 4 ta tuxum sarig'i, 0.5 st smetana yoki qatiq, 2 osh qoshiq yog', 0.5 choy qoshiq osh sodasi (sirka bilan) va tuz;

bizesiga: 4 ta tuxum oqini 1.5 st shakar bilan qattiq massa hosil bo'lguncha ko'pirtiramiz.

Olchani tozalab, 2 osh qoshiq shakar va kraxmal aralastirib olamiz.

Xamir qorib, 15 daqiqa sovutkichda tindiramiz. So'ngra 1 sm qalinlikda xamirni yoyib, danagi olingan olchalarni bir tekisda solib chiqamiz. Gaz pechida 15-20 daqiqa davomida chala pishirib, qizarmasidan olamiz. Oldindan tayyorlab qo'yilgan bizeni olchalar ustidan tekislab solamiz va yana 25-30 daqiqa davomida 180 daraja issiqlikda pishiramiz.

Yoqimli ishtaha!



Hamkorlik o'rnatildi



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov va "SamAuto" MChJ QK bosh direktori o'rinbosari Ilhomjon Yarashev boshchiligida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda "Vatanparvar" tashkilotining respublika bo'ylab faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq o'quv muassasasi uchun "SamAuto" zavodida ishlab chiqarilgan yuk mashinalarining xarid qilinishi masalasi muhokama qilindi. Ushbu transport vositalaridan o'quv muassasalarining avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kurslarida "C" toifasi bo'yicha tahsil olayotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanishlari rejalashtirilmoqda.

Uchrashuv davomida qo'shma korxon vakillariga tashkilotning haydovchilik va boshqa texnik kasblarga

o'qitish bo'yicha keng imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

"Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida fuqarolar 32 yildan buyon haydovchilikning barcha toifalari bo'yicha o'qitib kelinadi. Bundan tashqari, 2023-yilning sentabr oyida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumiga ko'ra, xorijda vaqtincha yuk mashinasi haydovchisi sifatida ishlash istagida bo'lgan fuqarolar tashkilot o'quv muassasalarida "CE" toifalari bo'yicha o'qitilmoqda.



@Vatanparvargaxatbot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot

SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI



Hamdo'stlik kubogi

Sportchilarimiz 9 ta medal bilan qaytdi

Qozog'iston Respublikasi Qarag'anda shahrida sportning kemamodel turi bo'yicha Qozog'iston ochiq qishki chempionati (Hamdo'stlik kubogi bosqichi) o'tkazildi.



Turkiya, Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlarining 60 dan ortiq vakili ishtirok etgan musobaqalarda sportchilar o'zlari tomonidan yasalgan kemalar modellarini va ularning suvda harakatlanish imkoniyatlarini namoyish etdilar.

Quvonarlisi, Hamdo'stlik kubogi bosqichida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston milliy terma jamoasi mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qilib, 3 ta oltin, 4 ta kumush va 2 ta bronza medallarga sazovor bo'ldi.

Jumladan, shaxsiy birinchi bo'yicha bo'lib o'tgan bahslarda

sportchilarimiz quyidagi natijalarga erishdilar:

Farhod Jovliyev: "S-1" sinfida 1-o'rin;

Aleksandr Nemerjiskiy: "S-2" sinfida 2-o'rin, "D-5" sinfida 2-o'rin, "D-9" sinfida 3-o'rin;

Marat Xakimzanov: "S-3" sinfida 1-o'rin, "S-5" sinfida 2-o'rin;

Nail Xakimzanov: "S-5" sinfida 1-o'rin;

Shahrizoda Muhammadaminova: "S-5" sinfida 3-o'rin;

Dilshod Eshmurodov: "D-4" sinfida 2-o'rin.

Eslatib o'tamiz, "Vatanparvar" tashkiloti bir qator xalqaro sport tashkilotlari, jumladan Xalqaro kemamodelchilik federatsiyasi (NAVIGA)ning to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti - "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5699

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 840 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqan
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya